| | *Bir talaba javoblarni doskada yozib borishni taklif qiladi va javoblar tahlil qilinadi (15 daqiqa)*<br>*II.2. Talabalarni to`rtda kichik guruhlarga bo`ladi. Mashg`ulotning o`tkazilish tartibini Yana eslatadi. O`quv mashg`uloti «o`zi o`rganib, o`zgaga o`rgatish», e`ni hamkorlikda o`rganish printsipi asosida o`tkazilishini aytadi (zigzag, 2-ilova).*<br>*II.3. Guruhlarga ekspert varaqlarini, shu Bilan birga har bir talabaga geometrik shakl tarqatiladi va faoliyatlarini tashkil qiladi (geometrik shakllarni vaqtincha bir joyga quyishlarini, vaqti kelganda undan foydalanishlarini aytadi) (3-ilova). Guruhlarda ishni tashkil qiladi (matnni o`rganib, muhoqama qilishga 15 daqiqa beradi).*<br>*II.4. Doira shaklinin olgan talabalar 1-stol, uchburchak shaklini olganlar 2-stol, to`rtburchak shaklini olganlar 3-stol atrofiga o`tirishlarini aytadi. Har xil guruhlardan to`plangan talabalar o`z savollarini boshqa talabalarga yoritishini tushintiradii. O`zaro o`rgatish jarayoni boshlanadi (15 daqiqa). Talabalar faoliyatini kuzatadi,ularni yo`naltiradi, maslahatlar beradi..*<br>*II.5. Talabalarni o`zlarining dastlabki joylariga, stol atrofiga kelib o`tirishlarini aytadi.*<br>*II.6. Taqdimot boshlanishini e`lon qiladi. Har bir guruhdan 3 tadan talaba chiqib, faoliyat natijalarini taqdim qilishlarini aytadi. Taqdimot uchun har bir guruhga 8 daqiqadan vaqt ajratadi. Yo`naltiruvchi, maslahatchi sifatida ishtirok etadi. Javoblarni aniqlashtiradi, to`ldiradi, izoh beradi va tuzatishlar kiritadi.*<br>*II.7. Har bir guruh taqdimoti oxirida ekspert savollari bo`yicha xulosalar qiladi..* | *Guruhlar ijodiyotini tashkillashtiradi. Ma`ruzalarni o`qib, savollarga javob topadi.*<br><br>*Ma`lumotni muhokama qilib, fikr almashib sistemalashtiradi. Format qog`oziga sxema tarizida tushiriladi, talabalar belgilangan qatoriga o`tirib, bir-biriga javoblarini tushintirib beradi.*<br><br>*Dastlabki o`rinlariga kelib o`tiradi.*<br><br>*tayor ma`lumotlarni taqdim qilish uchun chizmalar ishlab chiqiladi. Guruh sardorlari o`qituvchiga tayor ma`lumotlarni taqdim qiladi.*<br><br>*Boshqa guruh a`zolarining bergan savollariga javob beradi. Bir-birini baholashadi.* |
| ***III. Yakuniy bosqich (5 daqiqa)*** | *III.1. Mavzu bo`yicha tegishli xulosa chiqaradi.*<br>*III.2. Guruhlarga o`z-aro baholarinin aytadi.. O`quv mashg`ulotlarining natijalarini muhokama qiladi.*<br>*III.3. Mustaqil ishlariga vazifa beradi:*<br>*1. Mavzuning keyingi rejasi savollariga tayorlanib kelish;*<br>*2.Nazorat savollariga og`zaki javob berish (4-ilova).* | *Eshitadi.*<br><br><br>*Vazifani yozib oladi.* |

## 4 UZBEKISTONNING AXOLISI VA AXOLI SONI, DINAMIKASI, JOYLAShIShI. MEXNAT RESURSLARI.

Reja:

1. Aholining soni va dinamikasi
2. Aholi sonining qayta tiklanishi
3. Aholining jinsiy va yosh tarkibi
4. Aholining milliy tarkibi
5. Aholining ijtimoiy tarkibi va bilim malakasi darajasi
6. Mehnat resurslari va ulardan foydalanish

**1. O’zbekiston axolisi.**

Iktisodiy va ijtimoiy geografiya kurslarida axolining urganishning muqim axamiyati shundan kelib chiqadigan axoli jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchidir. Mamlakat, uning iktisodiy rayonlari xalq xujaligini xududiy tashkil qilish va rivojlanishida axolini soni, tarkibi, takror barpo qilinishi rejasi, ishlab chiqarish malakalari, kabi kursatkichlar katta axamiyatga ega. Axoli kupgina xususiyatlariga kura mamlakatning turli mintaqalarida bir-biridan farq qiladi. axolining takror barpo uilinishi kursatgichlari yosh va jinsiy tarkibi, iktisodiy faol axolining xalq xujaligi tarmoqlari buyicha taqsimlanishi, axolining xududiy taqsimlanishi bilan xarakterlanadi. Axoli dinamikasi. O’zbekiston respublikasining axolisi 1991 yilgi 1 yanvar` xisobiga kura 23,7 mln kishidan iborat. axolisining soniga kura O’zbekiston xamdustlik mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi va Ukrainadan keyin 3-urinda turadi axolini son jiqatidan usishi (dinamikasi) uning takror barpo qilinish jarayoni (tukilish, ulim va tabiiy usish), xamda mexanik harakati (migratsiya) bilan chambarchas bog`liqdir. Bu jarayonning kelishiga axoli urtacha shakillangan murakkab tarixiy - an`anaviy va ijtimoiy va iktisodiy xususiyatlar xam katta ta`sir kursatadi. O’zbekiston juda murakkab tarixiy rivojlanish yulini bosib utdi. Uning kuxna tarixiy zamining gurkirab rivojlanishi va tanazuli, jangu jadallar oqibati bulgan vayronalilar va ularning yaratuvchisi namunalari, madaniy yuksalish va siyosiy uarashlar davrinig demografik va migratsion holatiga kuchli ta`sir etdi. O’zbekiston axolisiga Oktyabr` inqilobidan avvalgi rasmiy ma`lumotdar juda kam. Shu bilan birga, xali turmush darajasining va unga tibbiy xizmat kursatishning pastligi, axoli sonini usishi ancha sust borgan. 1865 yilda hozirgi O’zbekiston xududida, 3 mln 320 ming axoliyashagan. 1897 yilga kelib esa uning axolisining soni 3 mln 948 ming kishiga etgan, ya`ni 32 yil moboynida 19% kupaygan, bu davrda axolining usish darajasi atiga 0,55% ni tashkil etgan. Sovet xokimiyati davrida O’zbekiston axolisining soni ancha tez usa bordi. 1913-1940 yillarda O’zbekiston axolisi yiliga 1,5% dan usib bordi.Bu davrda axoli dinamikasidagi eng yuqori sur`atlar , ting qurilishlar payti - dastlabki besh yilliklar davriga tug`ri keladi.

Axolining soni jihatdan usish bosqichlarida Vatan urushi yillari alohida ajralib turadi. urush tufayli, erkaklarning uzoq muddatga oilasidan tashqarida qolishi, joylarda qalok bulishi, amalga oshirilishi lozim bulgan kuplab nikohlarning kechiktirilishi, axolining jinsiy tarkibining buzilishi hollari faqatgina urush yillaridagina emas, balki undan keyin xam kup yillar davomida axolining demografik tarkibiga ta`sir kursatib turadi. Urush yillarida aholli dinamikasida chuqur uzilishlar kuzatilgan bulsada, undan keyingi yillarda, demografik statestikada rasman tan olinganidan, axolini tuldirish davri demografik faolligi tufayli Uzbekistonda axoli soni nisbatan tez usdi. 1940-1959 yillarda axolining yillik usish sur`atlari 1,1%ni tashkil qildi. 1959 va 1970 yillarda utkazilgan axoli ruyxatlari oraliu davrida O'zbekiston axolisining yillik usish sur`atlari 3,35% ni tashkil etdi, axolining umumiy soni esa 3,7mln kishi (45%)kupaydi. Shu davrda O'zbekiston axolisining usish sur`atlari sobiq sovet davri axolisi usish sur`atlariga nisbatan 2,9 martaba yuqori buldi. 1970 va 1979 yillarda utkazilgan axoli ruyxatilari oraliu davrida O'zbekiston axolisining urtachi yillik usish sur`ati 3% ni sobiq sovet davri da 0,9% tashkil etdi. Garchi 60 yillardagi tug`ilish pasaygan davr avlodi tiklanish (reproduktiv) yoshga kirgan bulsada, axoli sonining yuqori suratlarda usishi 80-yillarda xam davom etdi, 1979 va 1989 yillarda utkazilgan axoli ruyxati ma`mumotlariga kura, keyingi 10-yilda O'zbekiston axolisi 4,5 mln kishiga kupayib, uning urtacha yillik usish sur`ati 2,6% ni tashkil etdi. Bu kursatgich, Uzbekistonda, sobiq sovet davrining boshqa respublikalarida va jaxonning deyarli barcha davlatlarida axolining kupayishi sur`atlarida kuzatilayotgan tabiiy sustlashish jarayoni sodir bulayotganidan dalolat beradi. Axoli dinamikasi ma`lumotlari shuni kursatadiki, sovet hokimiyati yillarida O'zbekiston axolisi tez kupayib bordi. 1926-199O yillar orasida O'zbekiston axolisi 436,1% kupaydi. Bu kursatgich Tojikistondan keyin barcha xamdustlak davlatlari orasida eng yuqori kursatgich xisoblanadi, ya`ni sobiq sovet davrining ushbu davrdagi axoli kupayish sur`atlariga nisbatan 2,2 marta ortiqdir. Axoli sonining oshib borishi va ancha yuqori sur`atlar bilan usib borishi natijasida Uzbekistonning sobiq sovet davridagi bu salmog`i tobora ortib bordi. Masalan, 1926 yilda

Uzbekistonning sobiq Ittifoq axolisi solmog`idagi ulushi 3,1% ni tashkil etgan etgan bulsa, 1940 yilda 3,4%ni, 1959 yilda 3.9%ni, 1970 yilda 4,9%ni , 1979 yilda 5,8% ni va 1989 yilda 6,9% ni tashkil qildi.

O'zbekiston axolisining bunday yuqori sur`atlar bilan usishi asosan axolining tabiiy kupayishi xisobiga ruy bermoqda. Keyingi yillarda respublika axolisining soni har yilli 420-440 ming kishi (bundan 10 yil oldin 360-380ming kishi edi) kupayayotgan bulsa, bu usishning asosiy qismi tabiy usish hisobiga sodir bulmoqda. Tabiiy usish kursatgichlarining kattaligiga kura O'zbekiston sobiq Respublikalar ichidafauat Tojikistondan keyingi urinda turadi. 1989 yilda ularda tabiiy usish kursatgichlari tegishli tarizda 27,O0 va 32,2 %0 ni tashkil etdi. Bu kursatgichlar sobiq Ittifoq urtacha kursatgichidan 3,6 , Rossiya FeFederatsiyasidagidan 6,9,

Gruziyadagidan 3,3, Latviyadagidan 11,3 , Ukrainadagidan 15,9 marta yuqoridir. Uzbekistonda tabiiy usish kursatkichlari 1989 yilda 1979 yildagiga nisbatan atiga 0,4 promilliga kamaygan holda bu kamayish jarayoni shu davr ichida sobiq itfoqda 0,6 , Rossiya Federatsiyasida 1,1 Gruziyada 1,4, Ukrainada 2,0 promelleni tashkil etdi. Uzbekitonda axoli tabiiy kO'payishi kO'rsatkichlarining keyingi vaqtlarda xam bu qadar yuqori holda saqlanishi bir qator ijtimoiy - iktisodiy sabablar bilan bog`lig`dir. Ularning asosiylari kO'ydagilar. Uzbeklar va boshqa mahalliy millat vakillari orasida an`anaviy kO'p bolalikning barqaror holdaligi; Rivojlangan mamlakatlarga xos hozirgi zamon ilmiy va industrial ishlab chig`arish madaniyatining nisbatan pastligi; Urbanizatsiya darajasining pastligi tufayli axoli asosiy qismining kishlok xO'jaligi va u bilan bog`liq ishlab chig`arish soqolarida bandligi; Oilada bolalar sonini oldindan belgilash va tug`ilishni cheklash choralari O'llashning keng tarqalmaganligi; Mahalliy millat ayollari orasida ijtimoiy - ishlab chig`arishda ishtirok etmaydiganlar salmog`ining ancha ekanligi va boshqalar; Uzbekistonda tug`ilishninig yuqori bO'lishida nikox bO'lganlarning kO'pligi va oilalarning ajralishi kamligi xam ma`lum rol` O'ynaydi. 1989 yilda har 1000 kishiga nisbatan sobiq itfoqda 9,4 ta nikox qayd etilgan bO'lsa, Uzbekistonda u 10,0 ni tashkil etdi. 1989 yilda har 1000 kishiga nisbatan sobiq itfoqda 3,4 ta ajralish qayd qilingan bO'lsa, Uzbekistonda esa 1,5 ajralish, ya`ni 1,5 barobar kam ajralish qayd etilgan. Tabiyki, nikoqda turganlar va nikoq qurayotganlar soning kO'p bO'lishi, ajralishning kam bO'lishi tug`ilish kO'rsatkichlarining sezilarli darajada yuqori bO'lishiga olib keladi.

Hozirgi paytda Uzbekistonda bolalar O'rtasida O'lim anchagina bO'lsada, lekin dastlabki davrlardagiga nisbatan jiddiy tarzda kamaydi. Ilmiy xulosalar, Uzbekistonda axoli tabiiy O'sishining yaqin kelajakdaxam nisbatan yuqori sur`atlarda davom etishini kO'rsatadi. Shu bilan birga, tabiiy O'sishning mutloq kO'rsatkichlari asta-sekin pasayib borayotganligini kO'rsatadi. Masalan, 1960 yilda Uzbekistonda har 2000 kishiga 33,9 tug`ilish tug`ri kelgan bO'lsa, bu kO'rsatkich.1979 yilda 27,4 , 1989 yilda 27,0 ni tashkil qildi.

Axolining jinsiy va yosh tarkibi.

Axolining jinsiy va yosh tarkibi muxim demografik kO'rsatkichlardan bO'lib, ular mehnat resurslarining, maktabgacha xamda maktab yoshidagi bolalarning, hozirgi va kelajakdagi sonini aniqlash, turli jins va yoshdagi axoli uchun zarur bo'lgan keng iste`mol mollari ishlab chig`arishni rejalashtirish imkoniyatini beradi.

Jinsiy va yosh tarkibiga talluqli ma`lumotlar yaqin kelgusida axolining takror borpo qilinishi qay darajada bo'lishini xam oldindan aytib berish imkonini beradi. Agar jinslar nisbati teng yoki yaqin bo'lsa, shuningdek axoli tarkibida yosh avlod salmog`i yuqori bo'lsa, nikoxlanish va O'z navbatida, tugilish imkoniyatlari xam yuqori bO'ladi. shunday ko'rsatkichlar, ishlab chig`aruvchi ko'chlarni xududiy rijalashtirishga xam ta`sir ko'rsatadi.

O’zbekiston axolisining jinsiy va yosh tarkibi O’ziga xos xususiyatlarga egadir. Inqilobdan oldingi davrlarda O’zbekiston axolisining jinsiy tarkibida erkaklar ayollarga nisbatan ko’pchilikni tashkil qilar edi. bu xol avvolo usha davrlarda ayolning uzoq tarixiy rivojlanishi jarayonida shakllangan ijtimoy hayotda tutgan O’rni xususiyatlari bilan bog`lig`ligini ta`kidlash lozim. Oiladagi uy-ruzuor yumushlari asosiy xismining ayollar zimmasiga tushishi, odatga ko’ra uizlarning borvaqt erga berish va ko’p bolali, tibbiy xizmati , xamda onalikni muhofaza qilishdagi qoloqlik, ayollar o’rtasida o’limning yuqori bo’lishiga va oqibat nitijada ularning kam umir ko’rishiga olib kelgan.

O’zbekiston axolisining jinsiy tarkibidagi bunday xususiyatlar 1939 yilgi butun ittifox axoli ro’yxati ma`lumotlarida xam aks etgan. Usha yili respublika axolisining 51,6 % i erkaklar , 48.4 % ni xotin-qizlar tashkil qilgan. Vatan urushi sobiq ittifoqda bo’lganidek, Uzbekistonda xam axolining jinsiy tarkibiga chuqir ta`sir qildi. Urushdan keyingi utkazilgan 1959 yilgi Butun ittifoq axoli ro’yxati yakuniga ko’ra Uzbekistonda erkaklar jami axolining 48% ni tashkil qildi. Urushdan keyingi yillarda bu nomuvofiqlik asta -sekin yo’qola bordi. 1989 yilgi Butun ittifoq axoli ro’yxati shuni tasdiqlaydi. Endilakda O’zbekiston axolisining 49,4% i erkaklar va 5O,6% ayollardir. erkaklar 47,3% , ayollar 52,7 % ni tashkil qiladi. axoli tarkibidagi ortiqcha xotin - qizlarning asosiy kismi yukori yoshdagilarga tug`ri keladi.

Tabiiy O’sish sur`atlarining yuqoriligi O’zbekiston axolisining yosh tarkibiga ta`sir ko’rsatadi. Unda butun axoli orasida yosh bolalar O’smirlar salmog`i ancha yuqori. Tabiiy o’sish sur`atlari kO’p yillardan buyon yuqori bo’lgan urta Osiyo va Ozorbayjon respublikalari axoli tarkibida yosh avlod asosiy ko’rsatkichni tashkil qiladi. xamdustlik davlatlarning ko’pchiligida axolining "qarib borishi" kuzatilmoqda, Uzbekistonda aksincha tug`ilish ko’rsatkichlarining yuqori darajada saqlanib turishi sababli axolining "yosharib borishi" davom etmoqda.

**O’zbekiston axolisining milliy tarkibi va mexnat resurslari.**

O’zbekiston axolisi ko’p millatliligi bilan ajralib turadi. Uning tarkibini 120 dan ortiq millat va ellat vakillari tashkil qiladi. Inqilobdan oldingi davrlarda respublika axolisining milliy tarkibi tug`risida aniq ma`lumotlar yo’q. Inqilobdan keyin sovet xokimiyatining dastlabki yillarida urta Osiyoning erli xalqlarida, shu jumladan O’zbeklarda milliy shakillanish jarayoni tula tugallanmagan edi. shu sababli 1926 yilgi va 1939 yilgi axoli ro’yxatlarida millat degan savolga O’zbeklarning "qipchoqlar", "qung`irot", "qurama", "turk" kabi qadimiy yirik O’rulari nomlari qayd qilingan. 1959-1989 yilgi axoli ro’yxatlari ma`lumotlari shuni ko’rsatadiki respublikada yashagan barcha millat vakillarining soni va salmog`i ko’paygan. Masalan, o’zbeklarning umumiy soni qayd qilingan davr moboynida 2,8 marta ko’paydi va ularning soni respublika axolisi salmog`ining 62,1% dan 71,4% gacha o’sdi. Shuningdek, maxalliy millatlardan tojiklar 3 barobar, qozoqlar va qoraqalpoqlar 2,5 barobarga yaqin o’sdi.

Tojiklarning umumiy axoliga nisbatan salmog`i 3,8 % dan 4,7% gacha oshdi. Ruslar soni 624; boshqa millat vakilarining soni 545 ming o'sdi. Lekin ularning respublika axolisi O'rtasidagi salmogi ancha kamaydi. Masalan, agar 1959 yil axoli ro'yxati bo'yicha rus millatiga mansub axoli umumiy axoli salmogining 13,5% ni tashkil qilgan bo'lsa, 1989 yilgi axoli ro'yxatida 8,3% ni tashkil qildi. Boshqa millat vakillari salmog`i 12,5% dan 7,9% gacha kamaydi. Hamdo'stlikdagi axolini O'rganish shuni ko'rsatadiki, boshqa respublikada shu respublika axolisining 90% i o'z respublikalarida yashamoqdalar. XamdO'stlik davlatlarida yashayotgan O'zbeklarning 84,7% O'zbekistonda yashamoqda. Boshqa respublikalarda 2556 ming, yoki barcha O'zbeklarning 15,3% boshqa respublikalarda yashamoqda. Shularning xam asosiy xismi O'rta osiyo respublikalari va qozoqistonda yashamoqdalar. axolisi milliy tarkibi dinamikasidagi bunday O'zgarishlarga asosiy sabab, bir tomondan ularda tabiiy o'sishning yuqoriligi va ikkinchidan ularning respublikalararo migratsiyada kam ishtirok etishidir. Boshka millat vakillarining nisbatan sekin O'sishi ularda tabiiy O'sishning kamligidir, xamda migratsiya haroratlarining kuchliligi xisoblanadi.

Axolining ijtimoiy tarkibi va bilim malaka darajasi.

Har qanday mamlakat axolisining ijtimoiy-sinfiy tarkibi o'sha mamlakatda xukmron bo'lgan ijtimoiy munosabatlar xususiyati bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi axolining ijtimoiy-sinfiy tarkibi o'zgarishiga sabab bo'ladi. Sobik itfoqdagi muxim O'zgarishlar, unda mustaqil davlatlarning bozor iktisodiyoti munosabatlariga o'tish tez orada axolining ijtimoiy-sinfiy tarkibida sezilarli O'zgarishlarga olib keldi. Axolining ijtimoiy tarkibi uning sinfiy tarkibiga nisbatan kengroq tushunchadir. axolining ijtimoiy tarkibi deganda, uning mashquloti kasbkor asosida birlashgan guruxlar tushuniladi. Respublika axolisida ishchilar sinfi shakllandi va 1989 yilgi respublika statistik bo'limining boshqarmasi ma`lumotiga kO'ra, mehnatda band axolining 29,7% sanoat, qurilish, transportda ishlayotgan ishchi va xizmatchilardan iborat. 1913 yilgi ma`lumotlariga ko'ra barcha ishchi va xizmatchilar O'zbekiston axolisining atigi 5% ni tashkil qilgan.

Ishchilarning butun axoli orasidagi salmog`i O'zbekistonda xamdO'stlikdagi respublikalardan (47%) kamroq bo'lsada lekin respublikada ishchilar sinfi ortganligini ko'ramiz.

Respublikada ijtimoiy mehnatda band bo'lgan dehqonlarning soni va axoli orasidagi salmog`i kamayib bormoqda. Jumladan: dehqonlar salmog`i 1939 yilda 64,9% ni tashkil qilgan bo'lsa, 1979 yilga kelib u 24,7% ga tushib qolgan. 1989 yilda u 24,8% ga tushib qoldi. Bu holat avvalo kishlok xo'jaligining mexanizatsiyalashtirilganligidan, mehnat unumdorligi ortib borishi, kam quvvatli jamoa xo'jaliklarning davlat xo'jaliklariga aylantirish, xo'jalikda sanoat, qurilish, transport va aloqa sohasida ishchilar ko'payib, ishchilar soatiga qo'shilganligidadir. Ko'p yillar davomida O'zbekiston axolisining bilim darajasida ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. O'zbekistonda

xalq moarifida tarkib topib, rivojlandi. Inqilobgacha respublika axolisining 2% savodli deb kelgan noto’g`ri, aslida revolyutsiyaga qadar axolining 18-19% savodli bo’lgan.hozirgi vaqtda Respublikada barcha o’quv muassasalarida o’qiyotganlar soni 6779 ming kishidan ortdi. O’zbekistonda 1914-1915 yil o’quv yilida bor yo’g`i 171 ta umumiy ta`lim maktablari bo’lib, ularda 4649 ming o’quvchi ta`lim oldi va ularga 340 ming pedogog mehnat qilmoqda.

Respublikamizda oliy va O’rta maxsus ta`lim soqalarida xam katta yutuqlarga erishildi. 1914-15 yil O’quv yilida O’zbekistonda bor-yo’g`i 2 ta maxsus O’quv yurti bo’lib, bularda 100 kishi ta`lim olgan. 1990 yilda respublikada 244 ta maxsus O’quv yurti bo’lib, ularda 277,3 ming kishi ta`lim oldi. O’zbekistonda revolyutsiyadan ilgari oliy O’quv yurtlari bo’lmagan bo’lsada, hozirgi kunda 44 ta oliy O’quv yurti mavjud bo’lib, ularda 331,6 ming talaba bilim olmoqda. Respublikamizda yildan-yilga xalq xo’jaligida ishlayotgan malakali mutaxasislar soni ortib bormoqda. Masalan 1941 yil boshlaridan oliy ma`lumotga ega bo’lgan 19,9 ming va O’rta maxsus ma`lumotga ega bo’lgan 34,7 ming mutaxasis ishlagan bo’lsa, 1989 yilda ularning soni 767,9 ming oliy ma`lumotli, 8057,5 ming O’rta maxsus ma`lumotga ega bo’lgan mutaxasislar ishlamoqda. Respublikamizda keyingi yillarda industriyal taraqiyotning jadallashuvi bilan hunar texnika bilim yurtlari orqali malakali ishchilar tayyorlashga aloqida e`tibor berila boshladi. Agar 1970 yilda respublikamizda 126 ta hunar texnika bilim yurtlari 47,9 ming O’quvchi O’qigan bo’lsa, 1989 yilga kelib 480 ta hunar texnika bilim yurtida 249,6 ming O’quvchilar ta`lim oldi. Natijada xalk xo’jaligining barcha tarmoqlarida oliy va O’rta ma`lumotli malakali mutaxasislar soni va salmog`i oshib bordi. Shu yillarda O’zbekiston xotin-qizlari hayotida xam sifatli O’zgarishlar sodir bO’ldi. Inqilobdan oldin o’zbek xotin qizlari ishlab chiqarishda kamdan* , ishtirok qilgan, ular asosan uy-rO’zuor ishlari bola tarbiyasi bilan mashqul bo’lganlar. Xozirgi vaqtda o’zbek xotin-qizlari xalq xO’jaligining barcha tarmoqlarida faol mexnat qilmoqdalar. Masalan, 1989 yilda O’zbekistonda ishchi va xizmatchilarning 44% ni va dehqonlarning 54% ni xotin-qizlar tashkil qildi. Bular sog`liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta`minot sohasida ishlaganlarning 76,3% ini, maorif va madaniyat xodimlarining 53,7% ini, savdo, umumiy ovqatlanish, moddiy texnika ta`minoti, tayyorlov muassasalari xodimlarining 47,1% ni ilmiy tadqiqod xodimlarining 44,2% ni, xO’jalik jamoa va ijtimoiy idora xodimlarining 38,2% ini tashkil qiladilar.

O’zbekiston endilikda deyarli barcha fan sohalari bo’yicha ilmiy mutaxasislarni birlashtirgan 2 taga ega. Paxtachilik, kimiyo, geologiya, matematika soqalaridagi tadqiqod ishlari dunyo bo’yicha tan olingan. 1987 yilda respublikada 39,1 ming ilmiy xodim bo’lib, ulardan 1,3 tasi fan doktorlari, 16,3 mingtasi fan nomzodlaridan iborat. Zamonaviy kadrlar tayyorlashga e`tiborni qaratish lozim. Mexnat resurslari va ulardan foydalanish.

Uzbekistonda mexnat resurslarining soni, salmog`i usishi sur`atlari, ularning xalq xujaligi tarmoqlari va respublika xududida taqsimlanish, mexnat resurslaridan foydalanishning samaradorligi uziga xos xususiyatga ega. O’zbekiston axolisi yosh tarkibida yoshlarning kup bulishi uz navbatida mexnatga layoqatli kishilar salmog`ining nisbatan kamayishiga olib keldi. Shu bilan birgalikda tabiiy usishning yuqoriligi undan mexnat resurslari salmog`ining doimo ortib borishiga olib keldi. Mexnat yoshidagi axolining barchasi ba`zi bir sabablarga kura ishlab chiqarishda tuliq ishtrok eta olmadi. Ishlab chiqarishdan ajralgan holda usish. Armiyada xizmat qilish kabi obektiv Sabablarga kura axolining bir qismi ishda ishtrok eta olmaydilar. Kup bolali onalar oilada bola boqish. Maxsus uy xujaligi bilan shug`ullanishlari shunday sub`ektiv sabablarga kiradi. Respublikamiz kup bolali onalar salmog`ining kattaligi bilan ajralib turadi. Uzbekistonda iktisodiy faol axolisining xalq xujalik tarmoqlari buyicha taqsimlanishi sobiq itfoqdan farq qiladi. Respublikamizda 1939-1989 yillar orasida moddiy ishlab chiqarishda ishlaydigan axoli 90% dan 74,1% ga tushib qolgan. Nomoddiy ishlab chiqarish sohasida ishlovchilar salmog`i esa 7,8%dan 25,9%ga etgan. Moddiy ishlab chiqarishning uz ichida , uning turli tarmoqlarida ishlovchilarning soni va salmog`i xam turlicha uzgarmoqda. Sanoat, qurilish, transport va aloka tarmoqlarida ishlovchilar salmog`i doimo ortaborganligini kuramiz. Bu esa respublikada ana shu tarmoqlarning tez rivojlanayotganligini kuramiz. Sanoatda ayniqsa mashinasozlik sanoat tarmoqlari tez rivojlanayotganligini kuramiz. Shuni qayt qilish lozimki, respublikamizda sanoat, transport va aloqa vositalarida xizmat qiluvchilar salmog`i MDH davlatlari kursatkichidan past. Agar bizning respublikamizda ushbu tarmoqlarda ishlayotgan ishchilar salmog`i 29,2%ni tashkil qilsa, xamdustlik davlatlarida bu kursatkich 50,8%ni takkil qiladi. Hozirgi kunda xam kishlok yoshlarini sanoatdan kura, kishlok xujaligiga jalb qilish osonroq bulib ushbu regionda xlor va soda ishlab chiqaradigan zavodlarni qurish zarur.

Tayanch iboralar:

1. axoli soni; 2. Zichligi; 3. usish denamikasi; 4. Jinsiy tarkibi; 5.Yosh tarkibi; 6 Shahar axolisi; 7. qishlok axolisi; 8. qishlok manzilgoulari va ularning tiplari; 9. Shaharlar va ularning tiplari; 1O. Mehnat resurslari va ulardanfoydalanish.

Adabiyotlar.

1. I. A. Karimov- O’zbekiston XXI asr busag`asida; xavfsizlikka taxdid, barqororlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent "Uzbekiston" 1997 y,

2. Z.M. Akramov, P.G.Musaev O’zbekistonning iktisodiy va ijtimoiy jug`rofiyasi.
T. "uqituvchi", 1997y

3. G. A. Asanov, M. Nabixonov, I. Safarov «Uzbekistonning iktisodiy va ijtimoiy jug`rofiyasi.»"uqituvchi" 1994 y.

**5. MAVZU: O`zbekiston xalq xo`jaligiga umumiy ta`rif**
**(ma`ruza)**

| | |
|---|---|
| **O`quv soati:**<br>**Talabalar soni:** | - 2 soat<br>- talaba |
| **O`quv mashg`ulotining shakli:** | - ma`ruza |
| **Mavzu rejasi:** | 1.Sanoat geografiyasi<br>2.Qishloq xo`jaligi va transport tarmoqlari rivojlanishining asosiy xususiyatlari<br>3.Bozor iqtisodiyoti davrida O`zbekiston iqtisodiyotining MDX da tutgan o`rni |
| **Mashg`ulotning maqsadi:** | Sanoat geografiyasi, qishloq xo`jaligi va transport tarmoqlari rivojlanishining asosiy xususiyatlari, bozor iqtisodiyoti davrida O`zbekiston iqtisodiyotining MDX da tutgan o`rni haqida tushuncha berish |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>O`zbekistonda sanoat, qishloq xo`jaligi va transport tarmoqlarining rivojlanish tarixiy | **O`quv faoliyati natijalari:**<br>O`qituvchining natijali faoliyat ko`rsatishiga yo`naltiruvchi darsning metodik qo`llanmasidan farqli, ta`lim texnologiyasi o`quvchilar faoliyatiga qaratilgan bo`lib, u o`quvchilarning shaxsiy hamda o`qituvchi bilan hamkorlikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda o`quv materiallarini mustaqil olib borishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib beradi. |
| **Ta`lim metodlari:** | Mo`ammoli o`qitish, Evristik talim, Inson ijodiyotini proektlash, Aqliy hujim usuli, |
| **Ta`lim vositalari:** | - Ma`ruza matnlari, slaydlar, texnologik xaritalar, har hil rangdagi marker va kartochkalar, plakatlar |
| **Ta`lim shakllari:** | - ma`ruza, mavzuga oid adabiyottlar, guruhlarga bo`lib, o`lar bilan birga ishlash |
| **O`qitish shart-sharoiti:** | - maxsus auditoriya |
| **Monitoring va baholash:** | *(Reyting tizimida baholash: joriy nazorato`, oraliq nazorat yakuniy baholash)*<br>Yozma, og`zaki, test, savol – javoblar, anketalar |

**Ma`ruzaning texnologik xaritasi**

| ***Bosqichlari*** | ***Mazmuni*** | |
|---|---|---|
| | ***O`qituvchining*** | ***Talabaning*** |
| ***I. Kirish bosqichi (5 daqiqa)*** | *I.1. Mavzuning nomi, maqsadi, kutilajak natijalarini e`lon qiladi..*<br>*I.2. O`quv mashg`ulotining shakli, o`tkazilish tartibini tushintiradi va baholash mezonlarini e`lon qiladii (1-ilova).*<br>*I.3. Mavzu bo`yicha ma`ruza matnlarini tarqatadi ( har biriga).*<br>*I.4. Mavzuning rejasi va asosiy tushinchalarini eshittiradi va qisqacha izoh beradi..* | *Tinglaydilar*<br><br>*Mavzu nomini va rejasini yozib oladi.* |
| ***II. Asosiy bosqich (70 daqiqa)*** | *II.1. Aqliy hujum metodi orqali talabalarni faollantiradi. Berilgan savolga o`ylab javob berishni taklif qiladii (javoblarr 1-2 so`zdan bo`lishi kerakligini eslatadii)*<br>*-Geografiya ta`limining zamonaviy metod turlarini yozing.*<br>*Bir talaba javoblarni doskada yozib borishni taklif qiladi va javoblar tahlil qilinadi (15 daqiqa)* | *Savolni muhokama qilib ularga javob beradi.* |

| | | |
|---|---|---|
| | *II.2. Talabalarni to`rtda kichik guruhlarga bo`ladi. Mashg`ulotning o`tkazilish tartibini Yana eslatadi. O`quv mashg`uloti «o`zi o`rganib, o`zgaga o`rgatish», e`ni hamkorlikda o`rganish printsipi asosida o`tkazilishini aytadi (zigzag, 2-ilova).*<br>*II.3. Guruhlarga ekspert varaqlarini, shu Bilan birga har bir talabaga geometrik shakl tarqatiladi va faoliyatlarini tashkil qiladi (geometrik shakllarni vaqtincha bir joyga quyishlarini, vaqti kelganda undan foydalanishlarini aytadi) (3-ilova). Guruhlarda ishni tashkil qiladi (matnni o`rganib, muhoqama qilishga 15 daqiqa beradi).*<br>*II.4. Doira shaklinin olgan talabalar 1-stol, uchburchak shaklini olganlar 2-stol, to`rtburchak shaklini olganlar 3-stol atrofiga o`tirishlarini aytadi. Har xil guruhlardan to`plangan talabalar o`z savollarini boshqa talabalarga yoritishini tushintiradii. O`zaro o`rgatish jarayoni boshlanadi (15 daqiqa). Talabalar faoliyatini kuzatadi,ularni yo`naltiradi, maslahatlar beradi..*<br>*II.5. Talabalarni o`zlarining dastlabki joylariga, stol atrofiga kelib o`tirishlarini aytadi.*<br>*II.6. Taqdimot boshlanishini e`lon qiladi. Har bir guruhdan 3 tadan talaba chiqib, faoliyat natijalarini taqdim qilishlarini aytadi. Taqdimot uchun har bir guruhga 8 daqiqadan vaqt ajratadi. Yo`naltiruvchi, maslahatchi sifatida ishtirok etadi. Javoblarni aniqlashtiradi, to`ldiradi, izoh beradi va tuzatishlar kiritadi.*<br>*II.7. Har bir guruh taqdimoti oxirida ekspert savollari bo`yicha xulosalar qiladi..* | *Guruhlar ijodiyotini tashkillashtiradi. Ma`ruzalarni o`qib, savollarga javob topadi.*<br><br>*Ma`lumotni muhokama qilib, fikr almashib sistemalashtiradi. Format qog`oziga sxema tarizida tushiriladi, talabalar belgilangan qatoriga o`tirib, bir-biriga javoblarini tushintirib beradi.*<br><br>*Dastlabki o`rinlariga kelib o`tiradi.*<br><br>*tayor ma`lumotlarni taqdim qilish uchun chizmalar ishlab chiqiladi. Guruh sardorlari o`qituvchiga tayor ma`lumotlarni taqdim qiladi.*<br><br>*Boshqa guruh a`zolarining bergan savollariga javob beradi. Bir-birini baholashadi.* |
| ***III. Yakuniy bosqich (5 daqiqa)*** | *III.1. Mavzu bo`yicha tegishli xulosa chiqaradi.*<br>*III.2. Guruhlarga o`z-aro baholarinin aytadi.. O`quv mashg`ulotlarining natijalarini muhokama qiladi.*<br>*III.3. Mustaqil ishlariga vazifa beradi:*<br>*1. Mavzuning keyingi rejasi savollariga tayorlanib kelish;*<br>*2.Nazorat savollariga og`zaki javob berish (4-ilova).* | *Eshitadi.*<br><br>*Vazifani yozib oladi.* |

## 5. UZBEKISON RESPUBLIKASINING XALK XUJALIGI UMUMIY TA`RIFI.

Reja:

1.O’zbekiston Respublikasining xalq xujaligi Rossiya bosib olganga qadar.

2.O’zbekiston Respublikasi xalq xujalgi Rossiya tarkibida.

3.O’zbekiston Respublikasi xalq xujaligiga urishga qadar va urishdan keyingi yillarda.

4. O’zbekiston xalq xujaligi mustaqilik yillarida.

**Xujaligining umumiy ta`rifi**

Urta Osiyo xonliklarida sanoat maxsulotlari asosan xunarmandchilik asosida edi. Shahar hayoti XVIII asr oxirlaridan XIX asr urtalarigacha Buxoro, Samarqand, Shaxrisabz, Xiva, Urganch, Xozarasp, Quqon, Marg`ulon, Tashkent kabi shaharlarda ancha rivojlangan bo’lib, ularda ko’plab to’qimachilik, kulolchilik, zargarlik, chilongarlik, durodgorlik, xalq badiiy xunarmandchilik buyumlari ishlab chiqarilar edi. Buxoro va Marg`uloning shoyi xamda ip gazlamalari, Samarqand va Qo’qonning qog`ozlari, Qo’qon xamda Toshkentning badiiy xunarmandchilik va zargarlik maxsulotlari, savdo karvonlari orqali Sibir` va Rossiyaning ichki bozorlariga chiqarilar edi. Xuddi shu davrlarda suug`orma dehqonchilik rayonlari xisoblangan Farg`ona, Zarafshon vodiylari, Buxoro, Xorazm vohalarida kuplab etishtirilgan paxta va pillaga, qorako’l teriga tashqi bozorlarda eqtiyoj katta bo’lgan.

Iktisodiyotning etarli rivojlanmaganligi sababli O’rta Osiyoning, shuningdek Uzbekistonning juda ko’p xududlari tumanlararo geografik mexnat taqsimotida deyarli qatnashmas, asosan natural ishlab chig`arish bosqichini uz boshidan kechirar edi. Urta Osiyo iktisodiyotining eng sust rivojlangan soqalaridan biri transport edi. Ulkaning uzoq yillar davomida jaxon bozorlaridan ajralib qolganligi va tez-tez takrorlanib turiladigan qonli urushlar tufayli bir vaqtlar obod bo’lgan karvon yullari qarovsiz holda yotar edi. Maorif, madaniyat ishlariga asosan din homiylik qilar edi. Dunyoviy fanlar deyarli o’qitilmasdan, diniy ta`lim va savod beradigan maktab va madrasalar yirik axoli manzilgohlarida mavjud edi. Shaharlar bu borada aloxida o’rin tutadi. Ana shunday murakkab siyosiy, iktisodiy va ijtimoiy vaziyatni boshidan kechirib turgan O’rta Osiyoni XIX asr ikkinchi yarmida chor Rossiyasi bosib oldi. Urta Osiyoni mustamlaka sifatida bosib olgan Rossiya uni avvalo o’z to’qimachilik sanoati uchun xom-ashyo bazasiga harakat qildi. Chunki Rossiya to’qimachilik sanoatining xom-ashyosi deyarli yuq edi. Urta Osiyo Rossiyaning oddiy mustamlakasiga aylanibgina qolmay, balki xududiy jiqatdan imperiya tarkibiga to’g`ridan-to’g`ri qushib oldi. Urta Osiyoning Rossiya imperiyasi bilan tutash xududga ega bo’lishi o’tgan asrning 80-yillarida Krasnovodsk (Turkmanboshi) - Samarqand temir yulini qurish imkonini beradi. Keyinchalik bu temir yul Uzbekistonning yirik shaharlari, ichki rayonlari bo’ylab uzaytirilganligi bir tomondan, bu

jarayonni yanada kuchaytirdi, ikkinchi tomondan, o'lkada yanada chuqur o'rnashib qolish maqsadida metropoliyadan kuplab rus ishchi va dehqonlari, hunarmand kosiblar xamda ziyolilar ko'chirib keltirilishiga olib keldi. Ko'chirib keltiradiganlar o'lkada tashkil etiladigan va Rossiya kapitalizim manfatlariga xizmat qiladigan dastlabki sanoat va transport korxonalarida xizmat qilish kuzda tutilgan edi. Rus kapitalistlari tashkil etgan dastlabki sanoat korxonalari va transport vositalari kiradi. Ulka iktisodiyotining kapitalistik bozor talblariga moslashtirilishi bosib olishning bevosita natijalari edi.

XIX asr oxirgi 10 yilliklaridan boshlab o'lkada sanoat karxonalarini qurish tezlashib bordi. Bu korxonalarning negizini asosan paxta tozalash pilla chuvish, jun yuvish, paxta yog`i korxonalari tashkil qilar edi. Shungdek ulkadagi dastlabki elektr stantsiyalari va g`isht zavodlari xam xuddi shu davrda qurilgan edi. 1913 yilda hozirgi O'zbekiston xududida 425 ta sanoat karxonasi bo'lib, ularning 208 tasi paxta tozalash 80 tasi oziq-ovqat, 18 tasi objuvoz, 35 tasi kunchilik, 29 tasi xumdon yasash, 14 tasi metallsozlik korxonalari edi. Ijtimoiy maxsulotning 32% ishlab bergan sanoat tarmoqlarining tarkibi xam o'ziga xos edi. Yozning yalpi sanoat maxsulotining 86% kishlok xujalik maxsulotlarini dastlabki qayta ishlovchi (paxta tozalash va usimlik yog`i ishlab chiqaruvchi) korxonalarda 12% oziq-ovqat (yog` ishlab chiqarishdan boshqa), ko'pchilik korxonalarida, faqat 2% og`ir sanoat korxonalarida ishlab chiqarilardi. Og`ir sanoat tarkibida metallsozlik, qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalardan tashqari u qadar katta bulmagan "Chimyon neft` va Sho'rsuv" oltingugurt konlari xamda Oltiariqda joylashgan Vannovskiy neftni qayta ishlash zavodlari bor edi. Barcha sanoat karxonalarining 70% Farg`ona vodiysi shaharlarida to'plangan edi. Uzbekistoning Sovet xokimiyati yillaridagi sanoat taraqiyot jarayoni bir qator boskichlarni o'z ichiga oladi. Birinchi bosqich- tiklanish davri.bu davrda eski sanoat va xunarmandchilik korxonalari qayta tiklandi va bir qancha yangi sanoat korxonalari qurildi. Jumladan, Toshkent va Farg`onada ipakchilik fabrikalari, Buzsuv GESi, sanoat qand va Quvasoyda dezil elektir stantsiyalari ishga tushurildi. Sanoat tarahqiyotining ikkinchi bosqichi urushgacha bo'lgan davrlar besh yilliklar o'z ichiga oladi. Bu bosqich respublikada yirik sanoat o'choqlarini barpo etish davri bo'ldi. Birinchi (1928-1932 yil) va ikkinchi (1933-1937 yy) besh yilliklar davridayoq Uzbekistonda 831 ta yangi zovod va fabrikalar ishga tushurildi. Bular orasida Toshkent qishlok xo'jalik mashinasozlik zovodi, Chirchiq elektro kimyo, Toshkent to'qimachilik kombinat kabilar bor edi. Ikkinchi besh yillikning oxiridayoq O'zbekiston industrial-agrar respublikaga aylangan edi. Bu xulosani jumxuriyat xalq xo'jaligining yalpi maxsuloti tarkibi xam tastiqlaydi. Unda sanoatning xissasi 1913 yildagi 32% dan 1940 yilda 70% gacha ko'tarildi. Uchunchi bosqich Ulug` Vatan urushi yillarrini o'z ichiga oldi. Bu davrda respublikaga harbiy rayonlardan 90 ta og`ir sanoat korxonalari joylashtirilib ishga tushurildi. Shular jumlasiga Toshkent samalyotsozlik

birlashmasi, O’zbekiston qishlok xo’jalik mashinasozligi zavodi, Chirchiq qishlok xo’jalik mashinasozlik zavodi transformotor zavodlari kiradi. Urush yillarida respublikada neft`, mis, qurg`oshin, volfrom va molibdenning yangi konlari o’zlashtrildi. Agrenda yangi ko’mir shaxtalari ishlay boshladi, 6 ta yangi elektr stantsiyasi ishga tushurildi, Bekobod metallurgiya zavodi qurilishi boshlab yuborildi. Shu yillarda jami 280ta yangi sanoat korxonasi ishga tushuriladi. Bekobod metallurgiya zavodi qurilishi boshlab yuborildi. O’zbekiston sanoatining tarkibi keskin o’zgardi, og`ir sanoat solmog`i 1940-43 yillar orasida 14,35 dan 49% gacha o’sdi. Sanoat tarahqiyotining to’rtinchi bosqichi urushdan keyingi sanoat yuksalishi yillarini o’z ichiga oladi. Bu davrda O’zbekiston xalq xo’jaligining yangi davr talabi asosida qisqa muddat ichida qayta qurish bosh masalalardan biri edi. Sanoat tarmoqlarini qayta qurish va kengaytirish, kishlok xo’jalik ishlarini mexanizatsiyalash, ekin maydonlarini kengaytirish keng kulamda olib borildi. Respublika xalq xo’jaligining yanada tez sur`atlar bilan rivojlantirilishiga zamin tayyorlangan edi. Respublika sanoat tarahqiyotining beshinchi bosqichi 60 yillar boshlaridan 80 yillar o’rtalarigacha davom etdi. Bu bosqichning muhim xususiyatlari sifatida O’zbekiston sanoati, tabiiy, moddiy-texnika va mexnat resurslaridan yanada kengroq foydalanilganligi, uning sobiq Ittifoqdagi asosiy o’rni paxta, pilla, qorakul kabi xom ashyo va yarim xom ashyo etkazib berishdagi roli ortib borganligini ko’rsatish mumkin. Bu davir uchun O’zbekiston xo’jaligida fan-texnika tarahqiyoti rivojlanishining ayrim intensiv omillaridan shu maxsad yulida foydalanish, ijtimoiy ishlab chikarishning samaradorligini oshirish va sifat ko’rsatkichlarni yaxshilashdek bir qator xususiyatlar xarakterdir. Xuddi shu davrda O’zbekiston yoqilg`i energitika majmuaning asosini tashkil etadigan qator yirik gaz konlari uzlashtirildi, nodir metallar sanoati yaratildi, kup tarmoqli mashinasozlik barpo etildi, har xil istemol mollari etarli darajada yunalishida dastlabki qadamlar quyildi. 1991yil 31 avgustda uz mustaqiligini e`lon qilgan, Uzbekistoning xalq xo’jaligi o’zining chinakkam yangi tarahqiyot bosqichini boshladi. Bu tarahqiyot bosqichining asosiy vazifasi O’zbekiston iqtisodiy mustaqilligini ta`minlashda tayanch bo’la oladigan xalq xo’jaligi tarmoqlarini rivojalntirish asosida sanoat tubdan takomillashtirish, ularni zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyasi bilan ta`minlash va axoli turmish darajasini keskin yaxshilashdan iboratdir. Bu maqsadlarga erishishda xalq xo’jaligining moliyaviy-investitsiya tizimi ishlarida yuqori samaradorlikka erishish, baxolar tizimi faoliyatini tibdan sog`lamlashtirish, ishlab chiqarish korxonalari faoliyatida to’la mustaqillikni ta`minlash, respublika xududida chet el kapitalining harkati uchun etarli sharoit yaratib berish hal qiluvchi axamiyat kasb etadi. Hozirning o’zidayoq har bir ishlab chiqarish sub`ektining ichki va tashqi iktisodiy faoliyatida xamkorlik qilishga mo’ljallangan turli moliyaviy-bank muassasalari, tijorat birjalari va chet el kapitali ishtrokida qurilgan uyushma korxonalar ish boshlaganligi Uzbekistonning bu borada quyilayotgan dastlabki qadamlaridir.

Uzbekistonning qishlok xo'jaligi xam o'ziga xos murakkab tarahqiyot yulini bosib o'tdi. Ulkamizning kishlok xo'jaligi oldiga mustabid rus chorizimi xukumronligi davrida quyilgan bosh vazifa-qimmatli sanoat xom-ashyolari - paxta, pilla kabilar bilan ta`minlash vazifasi Sovet xokimiyati yillarida yana xam qat`tiyroq qilib kun tartibiga quyildi. 1925-28 yillarda utkazilgan er-suv isloxati natijasida barcha er suvlarning umumdavlat monopoliyasiga olinish, irrigatsiya-meliratsiya ishlarini qat`iy rivojlantirishga intilish sobiq SSSRning paxta mustaqilligini ta`minlashaga erishish yulidagi dastlabki qadamlar edi. Natijada 1928 yildayoq paxta xosili etishtirishning inqilobdan oldingi darajasiga erishlidi. Birichi besh yillik (1928-37 y) O'zbekiston qishlok xo'jaligi uchun yoppasiga kollektivlashtirish bilan xarakterlidir. Bu davrda mashina traktor stantsiyalari tashkil qilinib, kishlok xujaligi ishlarini mexanizatsiyalash ishlari natijasida paxtachilikda katta yutuqlarga erishildi. 1932 yildayoq sobiq SSSRning paxta mustaqilligi ta`minlanib, chetdan paxta keltirish tuxtatildi. Ulug` Vatan urushi yillarida Uzbekistonnda paxta etishtirish ob`ektiv sabablarga kura 825,2 ming tonnagacha (1945 yil) kamaygan bulsada, urushdan keyingi yillarda yana tez rivojlandi. Paxtaning yalpi hosili 1960 yilda 2,8 mln. tonnani, 1970 yilda 4,5 mln. tonnani, 1980 yilda 6,2 mln. tonnani tashkil qildi. Shu tariqa Uzbekistonda paxtachilik qisqa vaxt ichida misli kurilmagan usish sur`atlariga erishdi. 1980 yilga kelib, paxtaning yalpi xosili hozirgacha 1930 yildagiga nisbatan 12 barovardan kuproq usdi. Sovet hokimiyati yillarida Uzbekistonda hozirgi zamon transportining (temir yul, avtomabil`, havo, suv, kuvur, elektron) ning tarmoqli tizimi barpo etildi. Moddiy tarmoqlar qatoridan o'rin olgan bu transport O'zbekiston ishlab chiqaruvchi kuchlarini rivojlantirish va joylashtirishda, yangi mustaqil davlatlararo xamda tashqi iktisodiy aloxalarni tashkil etishda asosiy o'rin tutadi. Inqilobdan oldin Uzbekistonda ishlab chiqaruvchi kuchlarining xududiy joylashuvini nixoyatda notekis bulib, Farg`ona vodiysigina iktisodiy jiqatdan bir muncha rivojlangan edi. Ishlab chiqaruvchi kuchlar tarahqiyotiga ko'ra Toshkent rayoni Uzbekistonda ikkinchi o'rinda turar, respublikaning boshqa sanoat, hatto qishlok xo'jaligi ancha sust rivojlangan edi. Sovet hokimiyati yillarida respublikaning sug`oriladigan rayonlarida paxtachilikni rivojlantirish, irrigatsiya-meloratsiya ishlarini utkazish, mashinasozlik qishlok xo'jalik mausxlotlarini qayta ishlovchi sanoat korxonalarini barpo etish, er osti qazilma boyliklarini qidirib topish va ishga solish, temir yul xamda avtomabil` yullarini qurish bo'yicha katta tadbirlar amalga oshirildi. Bu tadbirlar Uzbekistonning rayon va viloyatlari iqtisodiyotini inqilobdan oldingi davrga nisbatan ancha kutarish imkonini berdi. Toshkent shahri va viloyati O'zbekiston mintaqalari orasida eng yuqori tarahqiyot darajasiga erishdi. Bu esa avvalo ularning qulay iktisodiy geografik va transport urni bilan izohlanadi.

Adabiyotlar.

1. I.A Karimov- O’zbekiston XXI asr busag`asida: xavsizlika taqdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.T."Uzbekiston" 1997 yil.

2. G.A.Asanov, M. Nabixonov, I.Safarov O’zbekistoning iktisodiy va ijtimoiy jug`rofiyasi. T."uqituvchi" 1994 yil.

3. Z.M.Akromov, P.G.Musaev-O’zbekistonning iktisodiy va ijtimoiy jug`rofiyasi.
T. "uqituvchi" 1997 yil.

## 6. MAVZU: Tarmoqlarora qurilish majmuasining respublika iqtisodiyotida tutgan o`rni. Istiqbollari
### (ma`ruza)

| | |
|---|---|
| **O`quv soati:**<br>**Talabalar soni:** | - 2 soat<br>- talaba |
| **O`quv mashg`ulotining shakli:** | - ma`ruza |
| **Mavzu rejasi:** | 1.Tarmoqlarning tarkibi<br>2.Tarmoqlarning geografiyasi, asosiy muammolari |
| **Mashg`ulotning maqsadi:** | Tarmoqlarning tarkibi, joylanishi va asosiy muommalar bilan tanishtirish |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>Tarmoqlarning tarkibi, joylanishi va asosiy muommalar bilan tanishtirish | **O`quv faoliyati natijalari:**<br>O`qituvchining natijali faoliyat ko`rsatishiga yo`naltiruvchi darsning metodik qo`llanmasidan farqli, ta`lim texnologiyasi o`quvchilar faoliyatiga qaratilgan bo`lib, u o`quvchilarning shaxsiy hamda o`qituvchi bilan hamkorlikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda o`quv materiallarini mustaqil olib borishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib beradi. |
| **Ta`lim metodlari:** | Mo`ammoli o`qitish, Evristik talim, Inson ijodiyotini proektlash, Aqliy hujim usuli, |
| **Ta`lim vositalari:** | - Ma`ruza matnlari, slaydlar, texnologik xaritalar, har hil rangdagi marker va kartochkalar, plakatlar |
| **Ta`lim shakllari:** | - ma`ruza, mavzuga oid adabiyottlar, guruhlarga bo`lib, o`lar bilan birga ishlash |
| **O`qitish shart-sharoiti:** | - maxsus auditoriya |
| **Monitoring va baholash:** | *(Reyting tizimida baholash: joriy nazorato`, oraliq nazorat yakuniy baholash)*<br>Yozma, og`zaki, test, savol – javoblar, anketalar |

### Ma`ruzaning texnologik xaritasi

| *Bosqichlari* | *Mazmuni* | |
|---|---|---|
| | *O`qituvchining* | *Talabaning* |
| ***I. Kirish bosqichi (5 daqiqa)*** | *I.1. Mavzuning nomi, maqsadi, kutilajak natijalarini e`lon qiladi..*<br>*I.2. O`quv mashg`ulotining shakli, o`tkazilish tartibini tushintiradi va baholash mezonlarini e`lon qiladii (1-ilova).*<br>*I.3. Mavzu bo`yicha ma`ruza matnlarini tarqatadi ( har biriga).*<br>*I.4. Mavzuning rejasi va asosiy tushinchalarini eshittiradi va qisqacha izoh beradi..* | *Tinglaydilar*<br><br>*Mavzu nomini va rejasini yozib oladi.* |
| ***II. Asosiy bosqich (70 daqiqa)*** | *II.1. Aqliy hujum metodi orqali talabalarni faollantiradi. Berilgan savolga o`ylab javob berishni taklif qiladii (javoblarr 1-2 so`zdan bo`lishi kerakligini eslatadii)*<br>*-Geografiya ta`limining zamonaviy metod turlarini yozing.*<br>*Bir talaba javoblarni doskada yozib borishni taklif qiladi va javoblar tahlil qilinadi (15 daqiqa)*<br>*II.2. Talabalarni to`rtda kichik guruhlarga bo`ladi. Mashg`ulotning o`tkazilish tartibini Yana eslatadi.* | *Savolni muhokama qilib ularga javob beradi.*<br><br>*Guruhlar ijodiyotini tashkillashtiradi. Ma`ruzalarni* |

| | | |
|---|---|---|
| | *O`quv mashg`uloti «o`zi o`rganib, o`zgaga o`rgatish», e`ni hamkorlikda o`rganish printsipi asosida o`tkazilishini aytadi (zigzag, 2-ilova).*<br>*II.3. Guruhlarga ekspert varaqlarini, shu Bilan birga har bir talabaga geometrik shakl tarqatiladi va faoliyatlarini tashkil qiladi (geometrik shakllarni vaqtincha bir joyga quyishlarini, vaqti kelganda undan foydalanishlarini aytadi) (3-ilova). Guruhlarda ishni tashkil qiladi (matnni o`rganib, muhoqama qilishga 15 daqiqa beradi).*<br>*II.4. Doira shaklinin olgan talabalar 1-stol, uchburchak shaklini olganlar 2-stol, to`rtburchak shaklini olganlar 3-stol atrofiga o`tirishlarini aytadi. Har xil guruhlardan to`plangan talabalar o`z savollarini boshqa talabalarga yoritishini tushintiradii. O`zaro o`rgatish jarayoni boshlanadi (15 daqiqa). Talabalar faoliyatini kuzatadi,ularni yo`naltiradi, maslahatlar beradi..*<br>*II.5. Talabalarni o`zlarining dastlabki joylariga, stol atrofiga kelib o`tirishlarini aytadi.*<br>*II.6. Taqdimot boshlanishini e`lon qiladi. Har bir guruhdan 3 tadan talaba chiqib, faoliyat natijalarini taqdim qilishlarini aytadi. Taqdimot uchun har bir guruhga 8 daqiqadan vaqt ajratadi. Yo`naltiruvchi, maslahatchi sifatida ishtirok etadi. Javoblarni aniqlashtiradi, to`ldiradi, izoh beradi va tuzatishlar kiritadi.*<br>*II.7. Har bir guruh taqdimoti oxirida ekspert savollari bo`yicha xulosalar qiladi..* | *o`qib, savollarga javob topadi.*<br><br>*Ma`lumotni muhokama qilib, fikr almashib sistemalashtiradi. Format qog`oziga sxema tarizida tushiriladi, talabalar belgilangan qatoriga o`tirib, bir-biriga javoblarini tushintirib beradi.*<br><br>*Dastlabki o`rinlariga kelib o`tiradi.*<br><br>*tayor ma`lumotlarni taqdim qilish uchun chizmalar ishlab chiqiladi. Guruh sardorlari o`qituvchiga tayor ma`lumotlarni taqdim qiladi.*<br><br>*Boshqa guruh a`zolarining bergan savollariga javob beradi. Bir-birini baholashadi.* |
| ***III. Yakuniy bosqich (5 daqiqa)*** | *III.1. Mavzu bo`yicha tegishli xulosa chiqaradi.*<br>*III.2. Guruhlarga o`z-aro baholarinin aytadi.. O`quv mashg`ulotlarining natijalarini muhokama qiladi.*<br>*III.3. Mustaqil ishlariga vazifa beradi:*<br>*1. Mavzuning keyingi rejasi savollariga tayorlanib kelish;*<br>*2.Nazorat savollariga og`zaki javob berish (4-ilova).* | *Eshitadi.*<br><br><br>*Vazifani yozib oladi.* |

## 6. O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOATIGA TA`RIF

Reja:

1. Respublika sanoatining joylanishiga ta`sir qiluvchi tabiiy omillar.
2. Respublika sanoatining joylashishiga ta`sir qiluvchi iktisodiy omillar.
3. Respublika sanoatining tarkibi va joylanishi.

**Sanoatning rivojiga ta`sir qiluvchi omillar**

Sanoatni rivojlantirish va uni xududiy tashkil qilishda xilma xil sharoitlar, omillar qatnashadi. Ularni ikki asosiy guruhga bulish mumkin. iktisodiy geografik omillar va tabiiy-geografik omillar. Iktisodiy-geografik omillarga mexnat resurslari bilan ta`minlanganlik xolati va ularning xususiyatlari, ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil qilish shakllari, energetika transport sharoitlari, infratuzilma xolati, ishlab chiqarishning moddiy-texnika ba`zasi, fan texnika taraqqiyot darajasi, tabiiy-geografik omillarga esa tabiiy sharoit (rel`ef, iqlim kabilar) bilan ta`minlanganlik darajasi kiradi. Sanoatni rivojlantirishda ishlab chiqarishning moddiy-texnika ba`zasi katta axamiyatga ega. Jamiyatning moddiy-texnika ba`zasi moddiy ishlab chiqarish ba`zasi moddiy ishlab chiqarish sharoitlarining majmuyi bulib, texnika-ishlab chiqarish qurollaridan tashkil topadi. 1990 yil ma`lumotiga kura, sanoatning asosiy ishlab chiqarish jamg`armalariining 36,35% ni, qurilish va transport bilan birga xisoblanganda esa 60% dan ortig`ini tashkil qiladi. Mexnat resurslari sanoatni rivojlantirish va ayniqsa uni xududiy tashkil qilishda muhim omillardan xisoblanadi. Ma`lumki, O’zbekiston mexnat resurslari bilan eng yangi yaxshi ta`minlangan respublikalardan biridir. Undagi axoli tabiiy usishning Sobiq Ittifoqdagi urtacha kursatkichidan ancha yuqoriligi, mexnat resurslarining ortiqcha

tuplanishiga olib keldi. Bu narsa Uzbekistonda sanoat ishlab chiqarishini sira kechiktirmay, yanada tezroq rivojlantirishni undaydi. Usib borayotgan mexnat resurslaridan tula va samarali foydalanish maqsadida sanoatning ayniqsa sermehnat tarmoqlarini (elektrotexnika, radiotexnika, asbobsozlik,elektrotexnika, engil sanoat kabilar) jadal taraqqiy etishi zarur. Bunday korxonalarni axolisi nisbatan tez usayotgan kichik va urta shaharlarda qurish maqsadga mofiqdir. Sanoatni xududiy joyashtirishda alohida hisobga oliinish lozim bulgan masalalardan biri har bir iktisodiy rayonda sanoat tugunlarida va hatto alohida ishlab chiqarish korxonalarida sanoat korxonalarini tashkil qilishda mexnat resurslarining jinsiy tarkibini e`tibordan qochirmaslik kerak. Shundagina erkak va ayollarning mexnat qilish imkoniyatlaridan ancha samarali foydalanish mumkin buladi. Sanoatni rivojlantirishda mexnat resurslarining xududiy joylashuvi e`tiborga olinishi kerak. O’zbekistonda axoli va mexnat resurslari Farg`ona vodiysi, Toshkent va Xorazm vohalarida

ayniksa zich joylashgan. Bu joylarda, shuningdek, Zarafshon va Surxon-Sherobod vodiylarining sug`oriladagan noxiyalarida ish kuchi zaxiralari bor. Kelajakda axolining yuqori tabiiy usishi va mexnat unumdorligining oshib borishi tufayli bunday zaxiralar yanada ortib borishi tabiiy. Shuning uchun xam bu mintaqalarda sanoatning ish kuchin uziga kup jalb qiladigan sermexnat tarmoqlarni yanada rivojlantirish lozim. Mexnat resurslarining bir qismi Uzbekistonning tabiiy resurslariga boy, lekin iktisodiy jixatdan kam uzlashtirilgan joylarga utib urnashishini rag`batlantirish xam zarur.

Fan-texnika taraqqiyotining sanoatini xududiy joylashtirishdagi roli katta. Ilgari foydalanishning iloji yuqdek kuringan Mirzachul, Karshi dashtlari dexonchilik ulkalariga aylantirilishi, paxta hosildorligining keskin usishi Fan- texnika yutuqlarining ishlab chiqarishga tadbiq etilishi natijasidir. Bu omil foydalanish maqsadga muvofiq bulmagan yoki sanoatda umuman ishlatilmagan turli tabiiy resurslarni ishga solish xam katta urin tutadi. Fan-texnika inqilobi omili O’zbekiston sanoatining deyarli barcha tarmoqlari rivojlanishiga ta`sir kursatadi. Tog`-kon, elektr enetgitika, mashinasozlik, kimyo, kishlok xujaligi kabi tarmoqlar taraqqiyotia bu omilning roli ayniqsa kattadir.

Sanoatni xududiy tashkil etish va joylashtirishda transport xam muhim axamiyatga ega. Chunki sanoatning xom ashyo va boshqa vositalar bilan ta`minlashda, korxonalar urtasida ishlab chig`arish aloxalarini yulga quyishda, mexnat resurslarining erkin harakatida va nihoyat, ishlab chig`arilgan mahsulotlarni iste`molchilarga etkazishda transport vositalaridan keng foydalaniladi. Janubiy O’zbekiston va Kuyi Amudaryo iktisodiy rayonining nisbatan sust rivojlanganligini kup hollarda transpolrt imkoniyatlarining uzoq yillar davomida cheklanganligi bilan xam izoqlash mumkin. Sanoatni rivojlantirish va joylashishiga sezilarli ta`sir etuvchi omillar qatoriga murakkab yunalishga infratuzilma mazmuni xam kiradi. Asosiy ishlab chiqarish in`fratuzilmasi (transport-aloxa vositalari, elektr uzatish liniyalar, suv bilan ta`minlash tizimlari, kanallari imkoniyatlariva boshqalar) va ijtimoiy infratuzilma ( uy-joy, ma`orif, tibbiyot, sport, savdo kabi muassasalar) ga bulinadigan bu majmusiz joylarda ishlib chiqaruvchi kuchlarini, jumladan, sanoatni rivojlantirib bulmaydi.

Uzbekistonning viloyatlarida infratuzilmaning rivojlanish darajasi bir xil emas. Uning tarmoqlari Toshkent, Samarqand "  Farg`ona vodiysi viloyatlarida yaxshi rivojlangan. Bu  hol qator boshqa omillar bilan birgalikda Respublika sanoatining rivojlaish darajasida hozirgi mavjud hududiy farqlarning kelib chiqishiga sabab buldi. Sanoatning rivojlantirish va xududiy joylashtirishga ta`sir etuvchi tabiiy omillar orasida joylarning tabiiy resurslar (avvalo foydali qazilma boyliklari) bilan ta`minlanganlik darajasi alohida urin tutadi. Chunki, yoqilg`i-energitika, mineral xomashyolar, suv va qator boshqa resurslarsiz sanoatni, ayniqsa uning undiruvchi tarmoqlarini rivojlantirib bulmaydi. Ishlob beruvchi sanoatning kupchilik tarmoqlari

uchun xam xomashyoni asosan ana shu undiruvchi sanoat etkazib beradi. Umuman O'zbekiston undiruvchi ishlab beruvchi sanaot tarmoqlaring kupgina muhim tarmoqlarini rivojlantirish uchun etarli resurslarga egadir. Ularga yoqilg`i-energitika, rangdor metallurgiya, kimyo, qurilish materiallari sanaotlari va hakazolar kiradi. O'zbekiston sharoitida suv resurslari xam sanoatni xududiy joylashtirish va taraqqiy ettirishda ancha faol qatnashadi. Ma`lumki, har qanday sanaot tarmog`i xam ozmi-kupmi suv iste`mol qiladi. O'zbekiston boshqa urta Osiyo respublikalari qatori suvga chanqoq, uiruouchil mintauada joylashganligi, uning suv resurslari umuman cheklangan. Sanaotni rivojlantirishda suv resurslarini uisobga olish orol fojiasi sharoitida juda xam dolzarbdir. Joylarning tabiiy sharoiti xam sanaotni rivojlantirish va joylashtirishda ma`lum rol` uynaydi. Iqlim iliq noxiyalarda sanaot ob`ektlarini qurish sovuq iqlimli joylarga nisbatan ancha arzon va qulay buladi. Bu omil Uzbekistonda garchi u qadar katta urin tutmasada, sanoat rivojlanishida har ualay ijobiy axamiyat kasb etadi.

**Yoqilg`i-energitika majmui.**O'zbekiston yoqilg`i energitika majmui rayonlararo axamiyatga ega bulib, respublika yalpi sanoat mausulotining 8,9% ini ishlab chiqaradi. Bu majmui ikki gruxga-yoqilg`i sanoati va elektr energitika sanoatiga bulinidi.

**Yoqilg`i sanoati.** Yoqilg`i sanoati O'zbekiston og`ir sanoatining muqim tarmoqlaridan biri bulib, tabiiy gaz, neft`, kumir qazib chiqarishni, neftni qayta ishlashni va tayyor mausulotlarni iste`chilarga etkazib berishni o'z ichiga oladi. O'zbekistoning gaz zaxiralari katta bulishi bilan birga ularni ishga solish nihoyatda qulaydir. Shu sababli bu tarmoq juda tez rivojlantirildi. Shu sababli yoqilg`i-energetika balansida asosiy rol` uynaydi. Respublikada yoqilg`i zaxiralarini qazib olishda xam, iste`mol qilishda xam tabiiy gazning salmog`i oshdi. Uzbekistonda qazib chiqarilayotgan barcha yoqilg`i mausulotlari orasida gazning salmog`i shartli xisobida olinganda 86,5% ni(1990 yil) tashkil qiladi. Gaz sanoati. Gaz sanoati tarkibiga tabiiy gazni qazib chiqarish, tozalash, suyultirish va sun`iy gaz tayyorlash, etkazib berish kiradi. 1945 yilda respublikada atigi 9 mln $m^3$ tabiiy gaz tabiiy gaz qazib chiqarilgan bulsa, 1965 yilda 16,5 mlrd m3, 1970 yilda-32,1 mlrd $m^3$ gaz qazib chiqarildi. Yangi gaz konlari (Sho'rton)ning o'zlashtirilishi asosida O'zbekistonda gaz qazib chiqarish yana kuchaytirildi. Uning miqdori 1980 yilda 34,8 mlrd $m^3$ ni, 1990 yilda 40,8 mlrd $m^3$ ni tashkil qiladi. Xozirgi payitda O'zbekistonda respublikasi qazib chiqpishda Rossiya Fedratsiyasi va Turkistonda keyingi urinda turadi. Respublikamizda bo'lib keyingi chorak asr davomida gaz qazib chiqarishda o'sishi Buxoro-Xiva geologik mintaqasida yirik gaz konlarining topilishi va o'zgarishi bilan bog`liq. Gazni O'rtabuloq, Uchqur, Jarqoq kabi gaz konlari yana xam istiqbolimiz Muborak va Shurton konlari ishga tushurildi.Agar dastlabki paytlarda qazib chikarayotgan gazning 90% dan ortig`i Buxoro viloyatida joylashgan konlar xissasiga tug`ri kelgan bo'lsa endigina bu o'rini Qashqadaryo viloyati konlari egallaydi. Respublikamizda qazib chiqarayotgan gazning 80%

ko’prog`i ushbu mintaqalardan olinmoqda. Ko’kdumoloq gaz konining ishga tushurilishi bilan shu xududning gaz qazib chiqarish salmog`i yana oshadi. Qashqadaryo viloyatida o’zlashtirilgan tabiiy gaz konlaridan tarkibida oltingugurt uchuvchan engil neft` birikmalari bilan bulgan gaz qazib olinmoqa. Bunday gazni qayta ishlash tozalash talab qilinadi. Muborak shaxrida shunday gazni tozalaydigan yirik majmua qurilgan. O’zbekiston gaz sanoatining yaqin istiqbollari yanada samaradaorlik bilan foydalanib respublikamizni to’la gazlashtirish bilan bevosita bog`liqdir. Neft` sanoati. hozirgi zamon yoqilg`i sanoatining eng samarali turlaridan biridir.Neft` sanoati O’zbekiston yoqilg`i sanoatining tung`ich tarmog`idir . Respublikamiz xududidagi dastlabki neft` koni Chimyondan 1904 yilda topildi. Keyinchalik bu erda Chimyon, Selroqa, Yorquton konlaridan neft` olindi. Keyingi yillarda Namangan viloyatida olingan Mingbuloq neft` koni respublikamizda neft` qazib chiqarishni yaqin yillarda keskin kupaytirish ishlarini beradi. Endigina neft` Farg`ona vodiysidagina emas shuningdek Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatida xam qazib olinmoqda. Uzbekistonda neftni qayta ishlash sanoati mavjud Farg`ona vodiysida ikkita qayta ishlash zavodi- Farg`ona va Oltiariq neftni qayta ishlash zavodlari ishlab turibdi.

**Kumir sanoati**. Uzbekistonda kumir zaxiralari katta emas. Kumir Toshkent viloyatida joylashgan Angren koni va Surxondaryo viloyatidagi Sharg`un konidan qazib chiqariladi. Angren koni respublikaning asosiy kumir bazasidir. Undan Uzbekistoning 95% dan kuproq kumir qazib olinadi. Angren kumiri O’rta Osiyoda tannarxi eng arzon kumirdir.Uzbekistoning ikkinchi kumir koni Surxondaryo viloyatidagi Sharg`un konidir. Bu kon kumirining sifati ancha yaxshi (kokslanish xususiyatiga ega) bulsada, lekin zaxirasi kam, qazib olish va tashish sharoiti qiyin. Respublikada 1990 yilda 6,5 mln tonna kumir qazib chiqariladi. Kelajakda Angren kumirni qazib olishni kupaytirish, Sharg`un toshkumirini qazib chiqarishini kengaytirish, Boysun toshkumir konini ishga solishni amalga oshirish maqsadga muvofiq..

**Elektr energetika sanoati.** O’zbekiston elektr energetika sanoatining taraqqiyoti Goelro rejasida boshlandi va u ikki davrni bosib utdi. Respublikada avvol GESlar qurildiki, bu maqsadga muvofiq edi.Suv quvvatidan foydalanish urta Osiyo respublikalarida muxim bulgan boshda bir muammoni yangi erlarni sug`orishni xam hal qilib beradi. Shungdek, Uzbekistondagi dastlabki GESlar asosan konlarda, kichik daryolarda qurilib, iktisodiy va texnik jihatdan oson va arzon tushar edi. 1926 yilda ishga tushurilgan Buzsuv GESi O’rta Osiyodagi dastlabki gidroelektr stantsiyasi edi. Urushgacha Chirchiq daryosida va Buzsuv kanalida Burjar, Tovoksoy kabi elektr stantsiyalari quruldi. Chirchiq -Buzsuv tarmog`ida 1941-1946 yillarda oltita elektr stantsiyasi qurilib ishga tushurildi. 1948 yilda respublikamizda eng katta Farxod GESi qurib ishga tushirildi. Urushdang keyingi dastlabki yillarda Chirchiq-Bo’zsuv suv tarmog`ida Shaxrixonsoy, Namangansoy daryolari va Darg`om, Qumqurg`g`on kanallarida bir necha GES

lar ishga tushirildi. 1955 yilda Uzbekistonda hosil qilingan elektr quvvatining 65%i GES lar xissasiga to’g`ri keladi. Respublikamiz elektr-energetika sanoatining rivojlanishidagi ikkinchi davr 60 yillardan boshlanadi. Bu davrda elektr quvvati hosil qilishda issiqlik stantsiyalarining salmog`i osha boshladi. Tabiiy gaz asosida ishlovchi Toshkent GRES i (1920 ming kVt), Navoiy GRESi (830 ming kVt), Taxiatosh GRESi (348 ming kVt), xamda ko’mir asosida ishlovchi Angren GRESi (600 ming kVt) lari qurib ishga tushirildi. Keyingi yillarda Sirdaryo GRESi (30mln kVt), Yangiangren GRESi (2,4 mln kVt) lari qurib ishga tushurildi. Natijada 1990 yil respublikada ishlab chiqarilgan butun elektr quvvatining 90% iga yaqinini issiqlik elektr stantsiyalari ishlab chiqardi. Daryolarda xam elektr stantsiyalari qurush davom ettirildi.Ular orasida respublikamizda eng yirik bo’lgan Chorvoq GESini (600 ming KVt) alohida ko’rsatib o’tish kerak. Chorvoq GESi va suv ombori Chirchiq-Buzsuv elektr stantsiyalari pog`anasining ish maromini yaxshiladi. 80- yillar boshida Chirchiq daryosida yana bir elektr stantsiyasi-Xujakent GESi (165 ming kVt) ishga tushirildi. Shu bilan Chirchiq Buzsuv pog`anasini tashkil qiluvchi elektr stantsiyalar 19 taga etdi. Koradaryo Andijon GESi (110ming kVt), Amudaryoda Tuyamuyin GESi (70ming kVt) lari xam qurib ishga tushirildi. 1990yilda Uzbekistonda hosil qilishgan elektr quvvati 56,3 mlrd Kvt ni tashkil qildi.

Respublikada iste`mol qilingan elektr quvvatining 575 idan sanoat va qurilishda foydalaniladi. Energitika tizimlarining tashkil qilinishi elektor tarnsportining rivojlantirish bilan bog`liqdir. Urta Osiyo respublikalaridagi yirik elektr stantsislarini asosiy markazlar bilan bog`lovchi yuqori vol`tli elektr uzatkich

Leniyalari qkurildi. Ana shunday leniyalardan eng yiriklar 500 *Vt kuchlanishga ega bulgan Nurek GESi Mirzatursinzoda-g`uzor-Samarqand-Sirdaryo GRESi; Toshkent-Samarqand-Tuxtagul-Andijon-Sirdaryo GRESi va boshqalardir.

Qora va rangli metallurgiya sanoati

Rangdor, asl va nodir metallarning qazib olish, boyitish va eritishning o’z ichiga oladigan rangdor metallurgiya, uning asosiy tarmoqlari Uzbekistoning dunyoviy ahamiyatga ega bo’lgan, iqtisodiy sohalardan biri hisoblanadi. Uzbekistoning rangdor metallurgiyasi ancha yosh ishlab chiqarish tarmoqlaridandir. Shunga qaramay, uning hissasiga O’rta Osiyo respublikalaridan ishlab chiqarilgan rangdor metallarning 2/3 qismidan ko’prog`i to’g`ri keladi. Hozirgi kunda respublikada rangdor metallurgiya sanoatining barcha texnologik jarayonlari shu erda amalga oshiriladi. Bunday sanoat korxonaliri Olmaliq, Muruntov (Zarafshon), Navoiy shaxarlarida joylashgan hisoblanadi. Olmaliq tog`-metallurgiya kombinati rangdor metallurgiyaning yirk korxonalaridan biridir. Bu kombinat mis, polimetall rudalarini qazib olish, boyitish, mis va rux eritish korxonalarini birlashtiradi. Mis Qalmoqqir va Sarichuv konlaridan qazib olinadi hamda kombinat tarkibiga kiruvchi boyitish fabrikasida boyitilib mis zavodida eritiladi. Qo’rg`oshin

kon va oltin tog` kon polimetal konlaridan qazib olinadigan rudalar qurg`oshin-rux boyitish fabrikasida boyitiladi. Rux kontsentrantlari konbinat tarkibidagi rux zavodida eritiladi; qurg`oshin kontsentrantlari esa eritish uchun hozircha respublikadan tashqariga chiqarilmoqda. Olmaliq tog`- metallurgiya kombinatining rux va qo'rg`oshin sanoati bilan bog`liq korxonalar tarkibiga sul`fat kislotalari ishlab chiqaruvchi korxona ham kiradi.

Uzbebekiston mis hamdo'stlik mamlakatlarida ishlab chiqarilayotgan eng arzon va sifatli misdir. Xozirgi asosiy mis konlaridan biri qalmoqqirda1 t ruda kazib olish uchun sarf qilinadigan kapital mablag` MDH mis sanoatidagi urtacha kursatkichga nisbatan ikki marta 1 t rudaning tannarxi esa 1,9 marta kamdir. Uning asosiy sababi shundaki, Uzbekistondagi mis rudalari ochiq usulda qazib olinadi. Mis konlari Qalmoqqir, Sarichigu, Dalniy, baliqchi kabi konlardan tashqari, janubiy Uzbekistondagi Xondeza va Chaqchar, Navoiy viloyatida Qizilqum, Farg`ona vodiysi va boshqa joylardagi mis konlaridir. Mis-metallurgiya kombinati Olmaliq almofos zavodiga sul`fat kislotasi etkazib berilmoqda. Kimyo sanoati korxonalarida sentetik tolalar, kishlok xujaligi uchun zararli kimyoviy moddalar va boshqa maqsulotlar ishlab chiqarish uchun zarur ishlab chiqarish komponentlaribilan ta`minlab turibdi. Volfrom-molebdin kontsentrantlari Chirchiqdagi O'zbekiston qiyin eriydigan va utga chidamli qotishmalar kombinatida eritiladi. Kombinat xamdutlikdagi eng yirik korxonalardan biribulib, xilma-xil maxsulotlar(vol`from, molebdin simlari,qattiu qotishmalar prokati, togg`jinslarini parshalaydigan asboblar va hokozolar) ishlab chiqaradi. Hozirgi paytda Nurota, Chotqol tog`lari yonbag`rlari va Markaziy Qizilqumdagi Marjon Buloq, Chodan, Murintov konlaridan oltin qazib olinmoqda. Zarafshon shaxrida yirik oltin tayyorlash kombinati ishlab turibdi. 1991 yildan boshlab Olmaliq tog` metallurgiya kombinati tarkibida yuldosh asl metallar (oltin, kumush) ni ajratib oladigan tsex ishga tushirildi.O'zbekistonda allyuminiy sanoatini rivojlantirish uchun xam zarur sharoit va zaxiralar mavjud. Qora metallurgiya sanoatiga Ulug` Vatan urushi yillarida asos solindi. 1946 yilda Bekobod metallurgiya zavodi ishga tushirildi. 70 yillar ikinchi yarmida O'zbekiston metallurgiya zavodida elektr quvvati yordamida pulat eritish tsexi va jamiyatning yangi prokat tsexi ishga tushirildi. Bundan tashqari korxona qoshida is`temol buyumlari ishlab chiqaradigan tsex xam ishlaydi. 1990 yilda 1015ming t pulat xamda 955 ming tonna prokat ishlab chiqarildi. Toshkentdagi "ikkilamchi qora metall" zavodida (Buxoro, Samarqand va Sirdaryo viloyatlarida) temir-tersaklarini qayta ishlovchi maxsus korxonalar xamda tsexlar qurildi. Respublika xududida qora metallurgiyani rivojlantirish uchun zarur bulgan temir va mrganets rudalari,olmos materiallari va utga chidamli xomashyolar xam topilgan.

Mashinasozlik sanoati.

Og`ir sanoatning eng yirik va etakchi tarmog`idir. O'zbekiston sharotida mashinasozlik sanoatining rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mashinasozlik malakali ish kuchini

ko'p talib qilganligidan uni aholisi va mehnat resurslari yuqori suratlar bilan respublikamizda rivojlantirish ayniqsa muhimdir. Mashinasozlik sanoati  Uzbekistonda asosan Sovet xokimiat yillarida barpo etildi va u yuqori suratlar bilan rivojlantirildi. 1940-75 yillar orasida O'zbekistonda sanoat yalpi mahsuloti 13 marta ortgan bulsa, mashinasozlik sanoati yalpi mahsuloti 587 marta o'sdi. 1980-89 yillarda mashinasozlik sanoatida yalpi mahsulot ishlab chiqarish 65%ni tashkil qildi. O'zbekiston mashinasozligining xalqaro miqyosdagi o'rnini paxtachilik majmui bilan bog`liq va unga xizmat qiluvchi tarmoqlarini belgilaydi.  Republika mashinasozligining 45%i paxtachilik majmui bilan bog`liqdir. Bular xam uch guruxga bulinadi.
1. Paxtachilik majmuini mexanizatsiyalashtirishga xizmat qiladigan mashina va uskunalar ishlab chiqarish.
2. Irrigatsiya-melarotsiya mashinasozligi: 3. Paxtani qayta ishlash bilan bog`liq mashinasozlik tarmoqlari (tuqimachilik mashinasozligi, paxta tozalash sanoativa boshqa engil xamda oziq ovqat sanoati uchun uskunalar ishlab chiqarish). Respublika qishlok xo'jalik mashinasozligi korxonarining deyarli xammasi keyingi yillarda qayta qurilmoqda, yangi uskunalar yangi texnologik vositalar bilan ta`milanmoqda.  Bu soxada respublika kishlok xujaligi mashinasozligining bosh korxonasi Toshkentkishlok xujalik mashinasozlik zavodida erishilgan yutuqlar xarakterlidir.  Bu zavodda "Uzbekiston" markali paxta terish mashinaliri ishlab chiqarilmoqda. Mashinasozlikning paxtachilik majmui tarkibiga kiruvchi yana bir yunalish irrigatsiya-meliratsiya mashinasozligidir. Pespublikamizda irrigatsiya mashinasozligining eng yirigi Andijon irrigatsiya mashinasozligi va Andijon mashina zavodlari xisoblanadi. Paxtachilik majmui bilan bog`liq mashinasozlikning uchinchi yunalishi tuqimachilik mashinalari va paxta tozalsh sanoati uchun texnologik uskunalar ishlab chiqarishdir. Mashinasozlikning ancha taraqqiy etgan. Paxta tozalash sanoati uchun zarur uskunalar ishlab chiqaruvchi Toshkent mashinasozlik, Andijondagi "Komunar", Samarqanddagi paxtachilik mashinasozligi, olmos(Namangan viloyati) paxta tozalash uskunalari uchun qismlar ishlab chiqaruvchi zavodlardir. O'zbekiston mashinasozligining yana bir muxim tarmog`i elektro texnika sanoatidir. Bu tarmoq Ulug` Vatan urushi yillarida vujudga kelib respublika mashinasozligining muxim tarmoqlaridan biriga aylandi. Bu tarmoqning respublikamiz mashinasozligidagi salmog`i 20% dan kattadir. Bu tarmoq korxonalari transformatorlar, elektr stantsiyalar va podstantsiyalar uchun shchit, panellar, zamonaviy murakkab kabellar, elektr asbob uskunalari, umuman  200 turda mahsulotlar ishlab chiqaradi. Elektro texnika mashinasozligining yirik korxonalir Toshkent elektrotexnika va kabel zavodlari, Chirchiq va Namangan transformator zavodlari, Andijon"elektr aparat" va "elektr dvigatel", Qo'qon elektr mashinasozligi zavodlari va boshqalardir.
Mashnasozlik tarmoqlari orasida eng yosh va hozircha  kam taraqqiy etgan asbobsozlik katta

istiqbollarga ega. Gap shundaki, bu tarmoq ko'p mehnat resurslarini jalb qiladi xamda republikaning asosiy ixtisos soxasi bo'lgan paxtachilik majmui tarkibida rivojlantiriladi. Mavjud "paxtachilik asboblari" zavodi asosan paxta tozalash zavodlari uchun paxta navini va tolasining sifatini aniqlash uchun maqsulotlar ishlab chiqaradi. O'zbekiston instrumintal maqsulotlar ishlab chiqarish xam tashkil etgan. Bu yunalishning yirik korxonalari Toshkent instrumintal va obrazif zavodlaridir. Respublikada og`ir mashinasozlik sanoatiga mansub bir qator korxonalar mavjud. Toshkentdagi "kutargich", "kompressor", Chirchiqdagi  O'zbekiston kimyo mashinasozligi, Namangandagi mashinasozlik zavodlari kimyo va neftni qayta ishlash sanoatlari uchun mashina va uskunalar ishlab chiqaradi. Shuningdek Toshkent ekskovator, teplovvoz tuzatish zavodi, avtomobil tuzatish zavodlari, Samarqanddagi neftsozlik, xolodil`nik, Toshkent va Farg`ona gaz aparat zavodlari vo shqa mashinasozlik xamda metalozlik korxonalri ishlab turibdi. Uzbekistonda keyingi yillardi mazkur majmuining ilmiy texnika taraqqiyoti hosilasi bulgan aniq va murakkab mashinasozligi soxasi tobora rivojlanmoqda. Toshkentdagi elektro texnika "Mikondo", "Zenit " zavodlari murakkab elektro texnika , elektronika, telemexanika vositalari ishlab chiqaradi. Algoritm birlashmasi eng takomillashgan elektron xisoblash majmuilari ishlab chiqmouqda. Mashinasozlik iktisodiy tarmoqlaring bundan keyingi taraqqiyoti asosan xorijiy mamlakatlar xamkorligida va ilg`or texnologiyasi asosida olib boriladi. Hozirdayoq shu yul bilan qurilgan ayrim korxonalar, jumladan bir marta ishlatiladigan shpritslar, uquv kompyuterlari, telivizor va vediomagnitofonlar va boshqa maxsulot bera boshladi. Janubiy Koreyaning "DEU", Germaniyaning "Mersedes-bents" kompaniyalarinig Asaka va Dustlik shaxarlarida zamonaviy avtomobillar ishlab chiqariladigan zavodlar qurib ishga tushirildi. Ular mausulot bera boshladi.

**Kimyo va qurilish materiallori sanoati**

Og`ir sanoatning xalq xo'jaligida fan-texnika taraqqiyotining ta`minlovchi tarmoqlaridan biridir. **Bugungi  O'zbekiston kimyo sanoati ancha yaxshi taraqqiy  etgan mamlakatlardan biridir.  Respublikada hozirgi zamon kimyo sanoatinig juda ko'p mahsulotlar ishlab chiqariladi.  Azotli fosforli va murakkab o'g`itlar (ammofos), sul`fat kislotalar, lak-buyog`, xamda rezina buyumlar , dori-darmonlar, qishlok xo'jalik zarakunandalariga qarshi kurash vositalari, kimyoviy tolalar, plasstmassalar va ko'plab boshqa maqsulotlar shular jumlasidandir.** O'zbekiston kimyo sanoatining dastlab vujudga kelgan tarmog`i- meneral o'g`it ishlab chiqarishdir. Bu sohada korxonalar birinchi besh yilliklar davridayoq qurilgan bo'lib, asos boshqa rayonlardan keltirilgan o'g`itlarni aralashtirish bilan shug`illanuvchi Quqon va Kogon zavodlari edi.

1940 yilda Chirchiqda azotli meneral o'g`itlar ishlab chiqaradigan elektroximiya kombinati ishga tushirildi. 1946 yilda Qo'kon va 1957 yilda Samarqand superfosfat zavodlari qurildi. Bu korxonalar asosiy ishlab chiqarish  komponenti bo'lgan fosforitni ilgari Kola yarim

orolidan olardi, endilikda qoratov (qoraqolpag`iston) dan olmoqda. Chirchiqda elektroximiya kombinati gaz asosida ishlashga utdi. 60 yillar davomida tabiiy gaz asosida ishlaydigan Farg`ona azot o’g`itlari zavodi va Navoiy kimyo zavodi  qayta qurilib, bu erda xam almofos ishlab chiqarilmoqda. G`o’za bargini to’kadigan defalientlar ishlab chiqarish Navoiy elektroximiya kombinatida, Farg`ona azot o’g`itlari zavodida tayyorlanmoqda.Ko’kon va Samarqand superfosfot zavodlarida sul`fat kislota tayyorlanib, meneral o’g`itlar, organik sentiz kimyosi, neftni qayta ishlash, rangdor metallurgiya, engil va boshqa tarmoqlar ehtiyojini qondira olmas, shu tarixa u ko’plab boshqa rayonlardan (asosan Uraldan) keltirilar edi. Endilikda olmaliq kon-metallurgiya kombinati tarkibidagi mis va rux zavodlari yonida sul`fat kislota ishlab chiqaradigan ikkita tsex ishga tushirildi va qimmatli maxsulot bilan ta`minlash ancha yaxshilandi. Respublikada kimyo sanoatining kenja tarmoqlaridan biri- organik sintez kimyosi tez rivojlanmoqda. Uning taraqqiyoti xam gaz sanoati bilan bog`liqdir.  Hozirgi vaqtda bu soxaning eng yirik tarmog`i Navoiy kimyo kombinati xisoblanadi. Uning tarkibida atsitelin, sirka kislotasi, tselyuloza, nitron tola  ishlab chiqaradigan maxsus quvvtlar yaratilgan.  Farg`onada atsetat ipak ishlab chiqarufchi zavod ishlab turibdi. Namangan kimyo sanoatida visiozipak bu su`niy tolalar turli xil gazlamalar, gilam, trikotaj ishlab chiqarishda keng foydalaniladi. Kimyoviy tolalar ishlab chiqarish  O’zbekiston kimyo sanoatining  yuksak darajada rivojlantiriladigan yunalishdir. Navoiy va Farg`ona bu soxaning bundan buyon xam asosiy markazlari bulib qolaveradi. Hozir ishlab chiqariladigan atsetat, nitron tolalar bilan birga vinop tola ishlab chiarishni xam yulga quyish muljallanmoqda.  Vinol tolasidan tayyorlangan materialari jahon bozoria ingichka tolali paxtadan tayyorlangan material bilan bir xil baholanmoqda. Uzbekistonda plastik massalar va ulardan turli maqsulotlar ishlab chiqarish yildan yilga kupaymoqda. Toshkent plastmassa quvurlar. Ohangoronda plastmassa asosida linolum, polietelin quvurlvr ishlab chiqaradigan zavodlar ishga tushiriladi. Plastmassa asosida is`temol maxsulotlari ishlab chiqarish italiya bilan xamkorlikda "sovplastital" qushma korxonasida amalga oshirilmoqda. Olmaliq maishiy kimyo zavodida kundalikxarid maxsulotlari bilan birga kashmir tolalari ishlab chiqarish xam yulga quyilgan.

Respublika kimyo sanoatining yana bir yunalishi turli xil rezina-texnika tarmog`idir. Xalq xo’jaligida foydalanilgan texnik rezina buyumlar Toshkent, Yangyo’l, Angrenda ishlab chiqarilmoqda. Toshkent va Popda shina ta`mirlash zavodlari ishlab turibdi. Popda (Namangan viloyati) rezina sanoatining yirik markaziga aylanmoqda. Bu erda rezinadan poyafzal tayyorlavchi zavod qurilgan. Kimyo sanoatining paxta sheluxasi (xavochou) dan turli maqsulotlar (etil spirti, furfori, kselit, sar`it, furam, furil, ouchil achituisi) ishlab chiqaradigan gidroliz tarmog`i xam muhim axamiyatga ega. Hozir Farg`ona gidroliz zavodi furam  birikmalari (asosan furofurol) ishlab chiqarishga ixtisoslashagn. Andijon gidroliz zavodida xomashyo

sifatida sheluxa urniga g`uzapoyadan foydalanilmoqda. Yangiyuldagi gidroliz zavodi mikrobiologik maxsulotlar ishlab chiqaradigan bioximiyaviy zavodga aylantirildi. Kimyo sanoatining mahalliy axamiyatiga ega bulgan yunalishlariga- lak-buyog` va maishiy kimyo maqsulotlari ishlab chiqarishni maqsulotlar tayorlanmoqda. Olmaliq zavodida kir yuvish vositalari ishlab chiqarilmoqda.

**Kurilish sanoati** qishlok xo'jaligi va transport singari muhim ahamiyat kasb etadi. Qurulish sanoati zavod fabrikalar, kanal- suv omborlari, uy-joylar va hokozalar qurishni o'z ichiga oladi. Oktyabr` tuntarishidan ilgari O'zbekiston hududida qurilish materiallari sanoati yarim kustar tipidagi g`isht zavodlvridan iborat bo'lib, ularda 1913 yilda 35 mln dona g`isht ishlab chiqarilgan. Respublikada qurilishning "noni" hisoblangan tsement sanoati ayniqsa tez rivojlantirildi. Hozirgi paytda respublika o'zini tsement bilan asosan ta`minlanmoqda. Bekobod, Quvasoy, Angren, Navoiy va Ohangaronda yirik tsement zavodlari ishlab turibdi. Qurilish materiallari sanoatning keyingi yillarda taraqqiy etgan tarmog`i-yirik panelli uysozlik kombinatlari deyarli barcha viloyat markazlari va katta shaxarlarda qurilgan. Eng yiriklari Toshkent, Samarqand, Andijon, Chirchiq, Farg`ona, Qarshi va Nukus shaxarlarida joylashgan. Deraza oynalari ishlab chiqaradigan zavod Chirchiqda (G`azalkentda) joylashgan. Quvasoyda shisha zavodi shisha buyumlar bilan birga qurilish maqsadlarida ishlatiladigan oyna bloklar singari mahsulotlar tayyorlanadi. Shisha idishlar zavodi Jizzaxda ishga tushirildi, shunday zavodlar Surxondaryo va quyi Amudaryoda xam qurilmoqda. Keyingi yillarda g`isht sanoatini qilona joylashtirishda ancha ishlar ilindi. Jumladan qiziltepa (Navoiy viloyati), Sharg`un (Surxondaryo viloyati) va qarshida yirik g`isht zavodlari kurildi. Xozirgi paytda Jizzax, Quvasoy, qoravulbozorda ohak zavodlari ishlab turibdi.Uzbekistonda xilma-xil qurilish materiallar (pardozlash plitalari, issiqni sauqaydigan materiallar, keramina quvurlari va boshqalar) ishlab chiqarish yaxshi yulga qo'yilgan. Angrendagi uysozlik buyumlari zavodida ishlangan chuyan vannalar rakovinalar, chuyan kanalizatsiya quvurlvr va boshqa maqsulotlar, qirimda keramzit devor materiallari ishlab chiqarilmoqda. Ayrim binokorlik materiallari (altbaster, chang, ohak,cheripitsa,chiy, xamish plitalar) ishlab chiuqrishda mauhlliy sanoat xam muxim rol` uynaydi. Jizzaxdagi siminakal`tsiy zavodi eng arzon binokorlik materiali-lyossdan devor bloklari, tom uchun plitalar, zinopoyalar va boshqa maxsulotlar ishlab chiqarilayotir.

**Engil va oziq-ovqat sanoat geografiyasi.**

**Engil sanoat.** Kishlok xujalik mausulotlariga ishlov beradigan engil va oziq-ovqat sanoatlari agrosanoat majmuini tarkibiy kismidir. Engil sanoat O'zbekiston sanoatini rivojlanish darajasi va istiubolliga kura eng muxim tarmoqlardan biridir. Uni rivojlantirish va joylashtirishda xom ashyo bazasi, yoqilg`i-energiteka mehnat resurslari xamda istemolchilarni mavjudligi asosiy ta`sir kursatadigan omillar hisoblanadi. Respublika kishlok xujaligini asosiy mahsulotlari,

birinchi navbatda, paxta, ipak, kanop, engil sanoatini muayan soxalarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi.

O'zbekiston engil sanoatini ikki gruxga bulish mumkin. Birinchi guruxga kishlok xujaligi berish bilan mausulotlarni dastlabki qayta ishlaydigan paxta tozalash, pillakash, qorakul teriga, kanop tolasiga ishlov berish, jun yuvush kabi tarmoqlar kiradi. Ikkinchi guruxga - axoli va xalq-xujaligi ehtiyojlari uchun eng keng iste`mol mollari-tuqimachilik, ip- gazlama, trikotaj, shoyi gazlama, tikuvchilik, poyafzal, muyna, shuningdek atirlik mollari, chinni idishlar kabi mausulotlar ishlab chiuaradigan tarmoqlar kiradi. hozir respublikada 120 ta paxta tozalash zavodi va 500 ta paxta punktlari ishlab turibdi. Asaka, Hijduvon, Buxoro, quqon, Yangiyul, qarshi, Zirabuloq, Namangan va Jumadagi paxta tozalash zavodlari eng irik zavodlardir. O'zbekiston paxta tozalash sanoati uz mausulotlarini MDH jumhuriyatlari xamda 30 dan ortiq chet mamlakatlarga yuboradi. Kishlok xujaligi mausulotlarini dastlab qayta ishlovchi engil sanoat tarmoqlaridan biri - pillakashlik sanoatidir. O'zbekistondagi birinchi pillakashlik fabrikasi 1921 yilda Farg`ona shahrida qurildi. Bunday fabrikalar keyinchalik Samarqand, Marg`ilon, Buxoro, Toshkent, Urganch va Shahrisabzda qurib ishga tushirildi. Bu esa etishtirilgan pillani tula dastlabki qayta ishlashni ta`minladi. Lub sanoati kanop tolasiga dastlabki ishlov berish bilan shug`ullanadi va O'zbekiston engil sanoatining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Respublikada kanop tolasi ishlab chiqaradigan 11 ta lub zavodi ishlab turibdi. Ular kanop ekiladigan rayonlarda (Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq, Oqqurg`on, O'rta Chirchiq rayonlarining kishloklarida) joylashgan. Tuqimachilik sanoati. 1930 yilda ishga tushirilgan Farg`ona yigiruv-tuquv fabrikasi O'zbekiston ip-gazlama sanoatining tunuichi edi. Hozirgi kunda bu korxona yirik tuqimachilik kombinatidir. Kombinat tarkibida yigiruv, tuquv va kirza fabrikalari, poyabzal ishlab chikarishda foydalaniladigan maxsus gazlama, tasma ishlab chiqaradigan tsexlar bor. O'zbekistondagi eng yirik ip-gazlama korxonasi – Toshkent tuqimachilik kombinati 1936 yilda ishga tushirildi. Bu kombinat tarkibida yigirvu, tuquv, pardozlash va qator yordamchi korxonalar bor. Respublikamizdagi yrik tuqimachilik korxonalaridan Andijon ip-gazlama kombinati, Jizzax paxta yigiruv fabrikasi, Nukus ip-gazlama kombinatlarini misol qilib kursatish mumkin. O'zbekistonda shoyi gazlamalar ishlab chiqarish uchun qulay imkoniyatlarga egadir. Samarqand shoyi tuqish fabrikasi 1932 yilda ishga tushirildi. 1942 yilda Marg`ilonda pilakashlik fabrikasi asosida yirik shoyi kombinati barpo etildi. Bu kombinat xilma-xil shoyi (krepdishin, polotno, jujuncha va

hakozalar ishlab chiuaradi. Marg`ilonning avrli gazlamalar "Atlas" firmasi xilma-xil gazlamalar, birinchi navbatda atlas ishlab chikarishga ixtisoslashgan. Milliy gazlamalar Samarkand , quqon Namangan shoyi fabrikalarida xam kuplab tayyorlanadi. Namangan va Popda notuqima materiallar fabrikalari mavjud. Trikotaj mollar 1939 yilda ishga tushirilgan.

quqon paypoq- trikotaj fabrikasi, shuningdek Andijon, Toshkent trikotaj fabrikalarida, Samarqand, Buxoro va Jizzax ustki trikotaj fabrikalarida ishlab chiqariladi. Xivada gilam kombinati, Olmaliq gilam fabrikalari respublika axolisini chiroyli gilam poyondozlar bilan ta`minlanmouda. Dastlabki kun zavodi Toshkentda 1928 yilda qurilib, ishga tushirildi. 1967 yilda ikkinchi ana shunday korxona ishga tushirildi.1968 yilda esa sun`iy charm va klyonka ishlab chiuaradigan zavod ishga tushirildi. Farg`ona shahridagi sun`iy kun zavodi bu tarmoqning katta tarmoqlaridan biridir. Poyafzal Toshkent, Samarqand, quqon, Buxoro, Yangiyul, Chirchiq, Andijon, Namangan, Farg`ona fabrikalarida ishlab chiqariladi. Buxorodagi qorakul dunyo bozorida yuuoriuadr topdi. Keyingi yillarda O’zbekiston hududida ondatra, nutra kabi muyynali hayvonlarni kupaytirish sanoat axamiyatiga ega bulmouda.Chunki buyumlar ishlab chiqariladigan yirik korxonalar-Toshkent chinni zavodi (1952 y), Samarqand chinni zavodi (197O y) , quvasoy chinni zavodi (1977 y) dir.

**Oziq-ovqat sanoati**. Hozir oziq-ovqat sanoati respublika sanoat maqsulotining 18% ini etkazib bermoqda. Respublika oziq-ovqat sanoatida usimlik moyi, konserva va sharob ishlab chiqarish tarmoqlari eng yaxshi rivojlangan. O’zbekiston moyi ishlab chiqarish sanoatida chigitdan moy olinadi. Bu tarmoq eng rivojlangan bulib, oziq-ovqat sanoati yalpi mausulotining 40% ini ishlab chiqaradi. O’zbekiston usimlik moyi ishlab chiqarishda MDX da Rossiya, Ukrainadan keyin uchinchi urinda turadi. Guliston, Namangan, Urganch, Faruona, Andijon, Kattaqurg`on, Yangiyul, qukon va Toshkent moy kombinatlari tarmog`ning eng yirik korxonalaridir. 1913 yilda O’zbekistonda joylashgan uchta konserva korxonasi 200 ming banka konserva ishlab chiuargan. Muynokda balik konservalari kombinati ishlab turibdi. Kombinatda xom-ashyoning bir kismini respublika suv omborlaridan, bir kismini chetdan oladi. Respublikadagi katta sharob zavodlari-Toshkent, Samarkand, Namangan, quqon, Urganch, Nukus, Denov, Yangiyul va boshka shaxarlarda ishlab turibdi.

Tayanch iboralar: 1.Sanoat joylashishiga ta`sir qiluvchi tabiiy omillar; 2. Sanoat joylashishiga ta`sir qiluvchi iktisodiy omillar; 3. Yoqilg`i sanoati. 4. Elektr energetika. 5.Rangdor metallurgiya. 6. qora metallurgiya. 7. Mashinasozlik. 8. Kimyo. 9. qurilish materillar sanoati.

Adabiyotlar.

1. I.A Karimov- O’zbekiston XXI asr busag`asida: xavsizlika taqdid, barqororlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.T. "Uzbekiston" 1997 yil.

2G.A.Asanov, M. Nabixonov, I.Safarov Uzbekistoning iktisodiy va ijtimoiy jug`rofiyasi. T."uqituvchi" 1994 yil.

3. Z.M.Akromov, P.G.Musaev. Uzbekistonning iktisodiy va ijtimoiy jug`rofiyasi. T. "uqituvchi" 1997 yil.

**7. MAVZU: Agrosanoat majmuasi**
**(ma`ruza)**

| | |
|---|---|
| **O`quv soati:**<br>**Talabalar soni:** | - 2 soat<br>- talaba |
| **O`quv mashg`ulotining shakli:** | - ma`ruza |
| **Mavzu rejasi:** | 1.Agrosanoat majmualari haqida tushuncha va uning mohiyati.<br>2.Qishloq xo`jaligi geografiyasi.<br>3.Irrigatsiya. |
| **Mashg`ulotning maqsadi:** | Agrosanoat majmualari haqida tushuncha va uning mohiyati, qishloq xo`jaligi geografiyasi, O`zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo`jaligining tutgan o`rnini o`rganish |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>Agrosanoat majmualari haqida tushuncha va uning mohiyati, qishloq xo`jaligi geografiyasi, O`zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo`jaligining tutgan o`rnini o`rganish | **O`quv faoliyati natijalari:**<br>O`qituvchining natijali faoliyat ko`rsatishiga yo`naltiruvchi darsning metodik qo`llanmasidan farqli, ta`lim texnologiyasi o`quvchilar faoliyatiga qaratilgan bo`lib, u o`quvchilarning shaxsiy hamda o`qituvchi bilan hamkorlikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda o`quv materiallarini mustaqil olib borishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib beradi. |
| **Ta`lim metodlari:** | Mo`ammoli o`qitish, Evristik talim, Inson ijodiyotini proektlash, Aqliy hujim usuli, |
| **Ta`lim vositalari:** | - Ma`ruza matnlari, slaydlar, texnologik xaritalar, har hil rangdagi marker va kartochkalar, plakatlar |
| **Ta`lim shakllari:** | - ma`ruza, mavzuga oid adabiyottlar, guruhlarga bo`lib, o`lar bilan birga ishlash |
| **O`qitish shart-sharoiti:** | - maxsus auditoriya |
| **Monitoring va baholash:** | *(Reyting tizimida baholash: joriy nazorato`, oraliq nazorat yakuniy baholash)*<br>Yozma, og`zaki, test, savol – javoblar, anketalar |

**Ma`ruzaning texnologik xaritasi**

| ***Bosqichlari*** | ***Mazmuni*** | |
|---|---|---|
| | ***O`qituvchining*** | ***Talabaning*** |
| ***I. Kirish bosqichi (5 daqiqa)*** | *I.1. Mavzuning nomi, maqsadi, kutilajak natijalarini e`lon qiladi..*<br>*I.2. O`quv mashg`ulotining shakli, o`tkazilish tartibini tushintiradi va baholash mezonlarini e`lon qiladii (1-ilova).*<br>*I.3. Mavzu bo`yicha ma`ruza matnlarini tarqatadi ( har biriga).*<br>*I.4. Mavzuning rejasi va asosiy tushinchalarini eshittiradi va qisqacha izoh beradi..* | *Tinglaydilar*<br><br>*Mavzu nomini va rejasini yozib oladi.* |
| ***II. Asosiy bosqich (70 daqiqa)*** | *II.1. Aqliy hujum metodi orqali talabalarni faollantiradi. Berilgan savolga o`ylab javob berishni taklif qiladii (javoblarr 1-2 so`zdan bo`lishi kerakligini eslatadii)*<br>*-Geografiya ta`limining zamonaviy metod turlarini yozing.* | *Savolni muhokama qilib ularga javob beradi.* |

| | | |
|---|---|---|
| | *Bir talaba javoblarni doskada yozib borishni taklif qiladi va javoblar tahlil qilinadi (15 daqiqa)*<br>*II.2. Talabalarni to`rtda kichik guruhlarga bo`ladi. Mashg`ulotning o`tkazilish tartibini Yana eslatadi. O`quv mashg`uloti «o`zi o`rganib, o`zgaga o`rgatish», e`ni hamkorlikda o`rganish printsipi asosida o`tkazilishini aytadi (zigzag, 2-ilova).*<br>*II.3. Guruhlarga ekspert varaqlarini, shu Bilan birga har bir talabaga geometrik shakl tarqatiladi va faoliyatlarini tashkil qiladi (geometrik shakllarni vaqtincha bir joyga quyishlarini, vaqti kelganda undan foydalanishlarini aytadi) (3-ilova). Guruhlarda ishni tashkil qiladi (matnni o`rganib, muhoqama qilishga 15 daqiqa beradi).*<br>*II.4. Doira shaklinin olgan talabalar 1-stol, uchburchak shaklini olganlar 2-stol, to`rtburchak shaklini olganlar 3-stol atrofiga o`tirishlarini aytadi. Har xil guruhlardan to`plangan talabalar o`z savollarini boshqa talabalarga yoritishini tushintiradii. O`zaro o`rgatish jarayoni boshlanadi (15 daqiqa). Talabalar faoliyatini kuzatadi,ularni yo`naltiradi, maslahatlar beradi..*<br>*II.5. Talabalarni o`zlarining dastlabki joylariga, stol atrofiga kelib o`tirishlarini aytadi.*<br>*II.6. Taqdimot boshlanishini e`lon qiladi. Har bir guruhdan 3 tadan talaba chiqib, faoliyat natijalarini taqdim qilishlarini aytadi. Taqdimot uchun har bir guruhga 8 daqiqadan vaqt ajratadi. Yo`naltiruvchi, maslahatchi sifatida ishtirok etadi. Javoblarni aniqlashtiradi, to`ldiradi, izoh beradi va tuzatishlar kiritadi.*<br>*II.7. Har bir guruh taqdimoti oxirida ekspert savollari bo`yicha xulosalar qiladi..* | *Guruhlar ijodiyotini tashkillashtiradi. Ma`ruzalarni o`qib, savollarga javob topadi.*<br><br>*Ma`lumotni muhokama qilib, fikr almashib sistemalashtiradi. Format qog`oziga sxema tarizida tushiriladi, talabalar belgilangan qatoriga o`tirib, bir-biriga javoblarini tushintirib beradi.*<br><br>*Dastlabki o`rinlariga kelib o`tiradi.*<br><br>*tayor ma`lumotlarni taqdim qilish uchun chizmalar ishlab chiqiladi. Guruh sardorlari o`qituvchiga tayor ma`lumotlarni taqdim qiladi.*<br><br>*Boshqa guruh a`zolarining bergan savollariga javob beradi. Bir-birini baholashadi.* |
| ***III. Yakuniy bosqich (5 daqiqa)*** | *III.1. Mavzu bo`yicha tegishli xulosa chiqaradi.*<br>*III.2. Guruhlarga o`z-aro baholarinin aytadi.. O`quv mashg`ulotlarining natijalarini muhokama qiladi.*<br>*III.3. Mustaqil ishlariga vazifa beradi:*<br>*1. Mavzuning keyingi rejasi savollariga tayorlanib kelish;*<br>*2.Nazorat savollariga og`zaki javob berish (4-ilova).* | *Eshitadi.*<br><br>*Vazifani yozib oladi.* |

## 7. O’ZBEKISTON AGROSANOAT KOMPLEKSI

REJA:

1. Agrosanoat kompleks xakida tushuncha va uning moxiyati.
2. Kishlok xujaligi geografiyasi.
3. Irrigatsiya.

Agrosanoat kompleksi Respublika xalk xujaligini asosiy tarkibiy kismi xisoblanadi. Agrosanoat kompleksining birinchi tarkibiy kismi kishlok xujaligi ishlab chikarish kurollari bilan ta`minlaydigan sanoat tarmogi, ikkinchi asosiy tarkibiy kismi kishlok xujaligining uzi va uchinchi tarkibiy kismi, kishlok xujaligi maxsulotlarini kayta ishlaydigan sanoat tarmoklaridir.

Agrosanoat kompleksi oldida Respublika axolisining ozik-ovkat va engil sanoatni xom ashyo bilan ta`minlash vazifasi turadi. Agrosanoat kompleksi tarmoklarida Respublika iktisodiy faol axolisining 45-47 % kismi ishlaydi.

Bu soxaga O’zbekiston Respublikasining mustakil bulgandan sung juda katta e`tibor berildi. Uni maksadga muvofik rivojlantirish uchun agrosanoat kompleksida jiddiy tuzilma uzgarishlarni amalga oshirishni takozo kiladi.

Bu soxada katta uzgarishlar kilinadi. Kishlok maxsulotlarining asosiy kismi Respublika xududida kayta ishlashni ta`minlashga karatilgan bulishi kerak.

Kishlok xujaligini zamonaviy ishlab chikarish kurollari bilan ta`minlash, kimyoviy ugitlarni etarli darajada ishlab chikarish, kishlok xujaligi maxsulotlarini kayta ishlovchi sanoat korxonalarini kuprok kurishni takozo etadi.

Ilgor chet el texnologiyasidan foydalanish va ilgor chet el firmalari bilan xamkorlikda kishlok xujaligini rivojlantirish.

Kishloklarda iktisodiy va ijtimoiy munosabatlarni xozirgi zamon talabiga javob beradigan ravishda uzgartirishlarni takozo etadi. Masalan, yoerlarga, brigada, oilaviy pudrati usullarida ishlov berishni keng joriy kilish. Xakikiy fermeno xujaliklarining kengaytirish va rivojlantirishga katta e`tibor berish va xokazo.

Kishlok xujaligi maxsulotlarini saklash uchun yangi omborlar, sovuk xonalar kurish jiddy vazifa xisoblanadi.

Erlarni meliorativ xolatini yaxshilab borish, imkoniyati boricha bir erdan ikki uch marta xosil olishni joriy kilish kerak.

Kishlok xujaligi maxsulotlarining davlat xarid narxini zamon talabi darajasiga, turmush sharoitiiiga yanada yakinlashtirish.

Zamon talabiga javob beradigan usimlik navlarini yaratish va boshkalar kishlok xujaligini riojlantirishni ilmiy asosda tashkil kilishning eng dolzarb masalasi xisoblanadi.

Kishlok xujaligi geografiyasi.

Kishlok xujaligi Uzbekistoniktisodiyotining eng muxim va etakchi tarmoklaridan xisoblanadi. Unda axolining 1/3 kismi banddir.

Uzbekistonning tarixiy iktisodiy tarakkiyoti, iklim, er-suv va mexnat resurslari kishlok xujaligining muxim serdaromad va kup mexnat talab kiladigan paxtachilik, sholikorlik, bogdorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik-polizchilik, pillachilik, korakulchilik kabi kishlok xujalik tarmoklarini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar  yaratilgandir. Bular Respublikaning keksa tarmoklaridir.

Oktyabr inkilobig kadar kishlok xujaligi Turkiston ulkasining asosiy ishlab chikarish tarmogi bulib, xalk xujaligi maxsulotining 88 % ga tugri kelar edi. Kishlok xujaligi agrotexnikasi juda past bulib, asosan omoch, suki, mola assoiy ishlab chikarish kuroli xisoblanar edi. Asosiy ishlar kul mexnatiga asoslangan edi. Kishlok xujaligi  ekstensiv xarakterda bulib, mineral ugitlar bulmagan edi.

Chor Rossiyasi davrida xonlik davriga karagnda paxtachilik rivojlanib, kup erlarda paxta kishlok xujaligining asosiy tamogiga aylangan. Usha davrda Turkistonda paxta maydonlari kariyb olti martaga ortdi. 1913 yilga kelib 417,8 ming gektarga etdi. Paxtachilikning deyarli xammasi Uzbekistonga tugri kelar edi. Usha vaktda Fargona vodiysida Respublikaning 69,7 % paxtasi etkizilar edi. Shuning uchun Fargona vodiysi paxtachilik maskaniga aylandi.

Uzbekistonda 1913 yilda 516,4 ming tonna paxta etkazilgan edi. Urtacha xosildorlik 12,2 dan oshmas edi.

Usha vaktda iktisodiy koloklik, mustamlaka siyosati, tabiiy va iktisodiy resurslardan samarali va okilona foydalanish imkoniyatini bermas edi.

Oktyabr inkilobidan sung kishlok xujaligi ishlab chikarishni yangi shakllari vujudga keldi.

1930 yilda Uzbekistonda mashina traktor stantsiyalari tuzish boshlandi.

Ulug Vatan urushigacha kishlok xujaligining barcha tarmoklari, ayniksa, paxtachilik tez sur`atlar bilan rivojlandi. Uchinchi besh yillikning birinchi yarmida Fargona vodiysi, Xorazm va boshka erlarda xashar yuli bilan suv xuajliklari kurilishlari tez rivojlana bordi.

1948 yilda paxtachilik va boshka kishlok xujaligi tarmoklari tiklandi, 1954-58 yillarda paxta maydonlari kengaydi va kishlok xujaligi rivojlanishi odimlab ketdi.

Yil sayin paxta yillik normasi oshib Uzbekistonda paxta yakka xokimligi vujudga kela boshladi. Boshka kishlok xujaligi ekinlari tarakkiyoti keskin kamayya bordi. Bu axolining moddiy sharoitig salbiy ta`sir kursatdi.

